

## MUNDARIJA

<b>BITIRUV MALAKAVIY ISHINING UMUMIY TAVSIFI.....</b>	<b>2</b>
<b>I BOB. Ta’lim bosqichlarida Fitrat ijodini o‘rganishning o‘ziga xosligi..</b>	<b>8</b>
1.1. Ta’lim bosqichlarida Fitrat ijodini o‘rganishga ajratilgan dars soatlari.....	14 18
1.2. Fitrat ijodini o‘rganish yuzasidan zamonaviy darslar tashkil etish.....	
<b>II BOB. “Abulfayzxon” dramasini o‘rganishda innovatsion yondashuv</b>	<b>25</b>
2.1. “Abulfayzxon” dramasini o‘rganishda noan’anaviy metodlar.....	25
2.2. Darslarda “Abulfayzxon” dramasi tahlili orqali o‘quvchilarning adabiy-nutqiy va badiiy tahlil kompetentsiyalarini rivojlantirish.....	31
<b>III BOB. Ishning amaliyotga tatbiqi.....</b>	<b>35</b>
3.1. Ta’lim bosqichlari dastur va darsliklari tahlili.....	35
3.2. Ochiq dars ishlanmasi.....	39
<b>XULOSA.....</b>	<b>58</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>60</b>

## **Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi**

**Mavzuning dolzarbliji.** O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov o‘zining deyarli barcha asarlarida asosiy e’tiborni yoshlarga oid masalalarga qaratadi. Xususan, “Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliv saodatdir” asarida shunday satrlar bor: “Bugungi kunda katta umid, orzu-maqсадлар bilan, Vatanim taraqqiyotiga hissa qo‘shaman, deb belini mahkam bog‘lab maydonga chiqayotgan, azm-u shijoatli yoshlарimizni har tomonlama qo‘llab quvvatlash barchamizning nafaqat vazifamiz, balki burchimizga aylanishi kerak”<sup>1</sup>.

Hozirgi kunda mustaqil Respublikamiz sharoitida xalq ta’limi o‘ziga xos rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. Bu o‘ziga xoslik, eng avvalo, ta’lim-tarbiya mazmunini milliylashtirish, ya’ni o‘zimizning juda boy o‘tmish tariximiz, madaniyatimiz, fanimiz, tilimizda o‘z mohiyati bilan yuksak insoniy-axloqiy mazmunga ega bo‘lgan jarayonda yosh avlodni o‘qitish baxtiga tuyassar bo‘ldik.

Yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, avvalo, bu sifatlarni o‘zimizda mujassamlashtirishni talab qiladi<sup>2</sup>. Shu bilan birga ta’lim-tarbiyaga yangicha yondashish, yangicha uslub va mazmun, shakl va vositalardan foydalanishni ham taqozo qiladi. Eski uslub bilan vazifalarni amalga oshirib bo‘lmaydi. Ko‘pgina olimlarning tajribalari shuni ko‘rsatadiki, biz bu masalalarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirishimiz mumkin.

Har qanday davlat taraqqiyoti ta’lim-tarbiya sohasida erishilgan yutuqlar, uning jahon andozalariga mosligi va amaliy hayotda qanday o‘rin tutishlariga bog‘liq. Sifat o‘zgarishlari esa mazkur sohada ijobjiy yangiliklar kiritish olishi bilan belgilanadi. O‘z navbatida bunday yangilikni kiritish – imitatsion jarayon bo‘lib, bu – ta’limda samaradorlikka erishishdan iborat bo‘ladi.

---

<sup>1</sup> Karimov I. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliv saodatdir. –Toshkent.: O‘zbekiston, 2015. 235-bet.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent.: Ma’naviyat, 2008. 34-bet.

Respublikamiz xalq ta’limi oldida turgan asosiy vazifa har tomonlama kamol topgan sog‘lom, qobiliyatli, o‘z Vatani va xalqiga sodiq insonlarni tarbiyalash va ularni voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu ulug‘ maqsadni ro‘yobga chiqarish xalq ta’limi tizimiga qarashli barcha xodimlar va o‘qituvchilardan o‘z ishiga ijodiy yondashish, har bir ishda yuksak samaradorlikka erishish xilma-xil metodik usullarni o‘ylab topish hamda uni mакtab hayotiga tatbiq etishni talab qiladi. Bugun maktablarda ta’lim olayotgan o‘quvchilar ilm-fan, texnika taraqqiyoti erishgan bir qator yutuqlardan bahramand bo‘lgan ma’lum darajada bilimli kishilardir.

O‘quvchiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg‘ulotlarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi. Ruhshunoslarning aniqlashicha bolalar o‘qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma’lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o‘zlari mulohaza yuritib mustaqil bajargan ishlari vositasida o‘zlashtirilgan bilimlarini uzoq esda saqlab qoladilar. Chunki o‘quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko‘rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko‘plab o‘quv materiallarini xayolidan o‘tkazadi. O‘xhash hodisalarni taqqoslaydi. O‘zicha mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi. O‘qituvchilarning tayyor holda bergen ma`lumotida esa o‘quvchi fikrlash faoliyati to‘la ishga kirishmasdan to‘g‘ri javobni o‘zlashtirib oladi. O‘xhash hodisalarga duch kelishi bilan o‘qituvchi bergen bilimni amaliyotga taqbiq qilishda qiynalib qoladi. Davlat ta’lim standarti va amaldagi mакtab dasturlarida o‘quvchi egallashi lozim bo‘lgan materiallar ancha murakkab bo‘lib, bolalarning bu bilimlarni bosqichma-bosqich egallab olishlarini, kengaytirib va rivojlantirib borishlarini taqozo etadi.

Bugungi Davlat ta’lim standarti<sup>3</sup> va ta’lim tizimi o‘qituvchilar oldiga o‘ta mas’uliyatli vazifalar yuklamoqda. Muallim har bir o‘tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg‘ulotlarni ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida qurishi, darsning har bir daqiqaсидан unumli foydalanishi zarur. O‘quvchi mashg‘ulotlarni

---

<sup>3</sup> Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarinitasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017-yil 14(774)-son, 230-modda.

shunday tashkil etish kerakki, o‘quvchida har bir dars davomida egallashi lozim bo‘lgan bilimlar hajmini, o‘zida hosil qiladigan ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga doir ish turlarini oldindan belgilab olishi lozim. Bu o‘z navbatida o‘quvchining mashg‘ulotlarga aniq maqsad bilan qatnashishini taqozo qiladi. Chunki o‘quvchi darsning oxirida belgilangan maqsadga erishganligini bilish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur.

Dunyoning ilg‘or mamlakatlari tajribasida sinab ko‘rilgan va bugun o‘qish tizimimizdan mustahkam o‘rin olgan ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida ish olib borilayotgan bizning mamlakatimizda ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor berilmoqda. Qisqa vaqt ichida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to‘g‘risida qonun” qabul qilinishi va uning hayotga tatbiq etilishi yosh avlod tarbiyasining umummilliy ahamiyatga ega bo‘lgan ish darajasiga ko‘tarilishi mamlakatimizda xalq ta’limiga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlik hisoblanadi. Ana shunday bir sharoitda barcha fanlar qatori ona tili va adabiyot o‘qitilishiga ham katta ahamiyat berilmoqda. Chunki ona tili va adabiyot barcha o‘quv fanlarining asosidir. Ona tili va adabiyotni o‘rganish bolaga ta’lim berish, uni tarbiyalash va rivojlantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risidagi farmonning qabul qilinishi ham o‘zbek tili va adabiyoti chuqur o‘rganilishiga zamin hozirladi. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PQ-4797-sonli ushbu farmoniga ko‘ra endilikda “O‘zbek tili va adabiyoti fanini o‘qitishning yangi va samarali metodlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish vazifalari belgilandi”.

Ushbu bitiruv malakaviy ishini yozishdan ko‘zlangan maqsad ham aynan adabiyotimizning yorqin namoyondalaridan biri bo‘lmish Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi hamda uning durdoni asari bo‘lmish “Abulfayzxon” dramasining o‘ziga xosligini o‘quvchiga tushunilishi oson bo‘lgan metod va usullar orqali o‘rganishni tadqiq qilishdan iborat. Abdurauf Fitrat ijodi va faoliyati yaqin tariximizning eng

porloq sahifalaridan birini tashkil qiladi. Uning zamonidan adabiyotni jamiyatga xizmat qildirish bilan shug‘ullangan ijodkorni topish qiyin bo‘lsa-da, so‘z ish birligini hech kim u olib chiqqan maqomga ko‘tara olgan emas. U adabiyot va madaniyatninggina emas, siyosatning ham tan olingan arboblaridan edi. U butun umri davomida ona-Vatanini ozod va obod qilish ishtiyoq uni Vatan va millat fidoiylaridan tashkil topgan “Yosh buxoroliklar” jamiyatini tuzishga muvaffaq etdi. Keyinroq mustaqil partiya sifatida faoliyat yuritgan ushbu jamiyatning pirovard maqsadi qadamba-qadam borib, istiqlolni qo‘lga kiritish va islohatlar yordamida mustaqil demotratik davlat qurishdan iborat edi. Fitrat Turkiston jadidchilik harakatining mashhur vakillaridan, yangi o‘zbek adabiyotining asoschilaridan, tan olingan dramaturg, nosir, shoir va zabardast olimdir. U va boshqa adabiyotimiz vakillarining ijodiy faoliyatiga o‘quvchilarni qiziqtira olish biz kabi bo‘lajak pedagoglarning oldimizdagi ulkan vazifalardan biridir.

Har bir mamlakat o‘ziga xos yirik bir oila singari o‘z hayotida yashaydi, uning kulfatlari, baxtsizligi boshqasinikiga o‘xshamasligi mumkin. Lev Tostoyning hamma baxtli oilalar bir-biriga ma’lum ma’noda o‘xhash bo‘ladi, hamma baxtsizlarning baxtsizligi esa o‘zicha kechadi degan, fikrlari mamlakat hayotiga ham tegishlidir. Shu ma’noda XVIII asrda Angliya yoki Yaponiyada sodir bo‘lgan voqealar bilan Buxoroda kechgan xunrezliklar bir-biriga o‘xshamasligi tabiiy. Biroq adiblar millatrning uyg‘oq darakchisi sifatida mana shu tarix qatidagi voqealarni badiiylashtirish orqali o‘z davriga munosabatini anglatadi. O‘zbek adabiyotida mamlakatni idora qilishda faqat o‘z shaxsiy manfaati-yu maishatdan boshqani bilmagan hokim va beklarning tarixiy taqdiri inqirozdan iborat ekanligi yuksak g‘oyaviy va madaniy saviyada tasvirlab berilgan asarlardan biri sifatida Fitratning “Abulfayzxon” dramatik asarini ko‘rsatish mumkin. Fitratshunos I.G‘aniyevning talqinicha: “Abulfayzxon” dramasidagi aks etgan xronotopning muallif yashab turgan zamon va makonga munosabatini aniqlash uchun oktyabr to‘ntarishidan keyingi dastlabki o‘n yilliklar tarixini u o‘zi taqdim etgan shaklda emas, bizga hozir ayon bo‘lgan shaklda ko‘z oldimizga keltirish kifoya.

Fitrat o‘z asarida boshlanib kelayotgan xunrezlik siyosti nimalarga olib kelishi mumkinligi haqida fikr yuritib, bunday jamiyat va yakkahokim rahbarlarning kelajagi yo‘q deya ta’kidlamoqchi bo‘ladi. Asarni o‘rganish orqali o‘quvchi o‘zi uchun kerakli xulosalarni chiqaradi. Dramani o‘quvchiga taqdim qilishdan ko‘zlangan maqsad ham shu aslida.

**Muammoni o‘rganilganlik darajasi.** Jadid namoyandalarining, xususan, Abdurauf Fitratning adabiy merosi ma’lum darajada yoritilgan, lekin bu borada qilinishi lozim bo‘lgan ishlar hali talaygina bo‘lib, ular o‘z tadqiqotchilarini kutib turibdi.

**Tadqiqotning maqsadi.** O‘quvchilarining tarbiyasida muhim o‘rin tutadigan badiiy adabiyot na’munalarini o‘rganish, badiiy tahlilning o‘quvchiga tushunilishi oson bo‘ladigan samarali usullarni aniqlash va amalda hayotga tatbiq etish tadqiqotimizning asosiy maqsadi belgilangan.

**Ishning metodologik asosi va metodlari.** O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning milliy g‘oya, ma’naviy qadriyatlarga munosabat va ilm-fan taraqqiyoti bilan bog‘liq qarashlari, Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari, 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi”, adabiy ta’limga oid me’yoriy hujjatlar ishning metodologik asosini tashkil etadi. Bundan tashqari, BMI ni yozishda adabiy ta’lim DTS, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” dan ham foydalanildi.

**Tadqiqotning obyekti.** Mazkur tadqiqot uchun Fitrat va boshqa ma’rifatparvarlarning adabiyotga oid barcha ilmiy hamda badiiy asarlar, maqola, risola, qo‘llanmalar manba sifatida qabul qilingan. Bunda tashqari umumta’lim maktablarining adabiyot ta’limi jarayoni, o‘qituvchilarining pedagogik faoliyati, umumiyl o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi, darsliklar, qo‘llanmalar ham obyekt sifatida belgilandi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Ushbu tadqiqot muayyan nazariy qiymatga ega bo‘lib, undan Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi, “Abulfayzxon” dramasini yoratishda manba sifatida foydalanish mumkin. BMI

natijalari umumiy o‘rta va o‘rta maxsus maktablarda, kollej va litseylarda mavzuga oid dars o‘tishda qo‘l keladi.

**Ishning tuzilishi va hajmi.** Ushbu bitiruv ishimiz kirish, uch asosiy bob va xulosa qismidan iborat bo‘lib, 61 sahifani tashkil etadi. Ishning kirish qismida bitiruv ishning dolzarbliji, maqsadi, vazifasi, metodologik asosi va obyekti haqida ma’lumot berildi.

## **I BOB. TA’LIM BOSQICHLARIDA FITRAT IJODINI O’RGANISHNING O’ZIGA XOSLIGI**

### **1.1. Ta’lim bosqichlarida Fitrat ijodini o’rganishga ajratilgan dars soatlari**

Abdurauf Fitrat o‘zbek xalqi hayotida XX asr tongida boshlangan Yangi Milliy Uyg‘onish davri va uyg‘onish adabiyotining buyuk vakilidir. Abdurahim o‘g‘li Abdurauf 1886-yil Buxoroda tug‘ildi. Mir Arab madrasasida o‘qidi. Turkiyaning Istanbul dorilfununidagi to‘rt yillik (1909-1913) tahsil Abdurauf dunyoqarashining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. “Yosh buxoroliklar”ning siyosiy kurashlaridagi faol ishtirok, maorifni isloh etish, jadidchilik harakatlaridagi jiddiy izlanishlar tufayli tug‘ilgan savollarga bu mamlakatning zamonaviy kechmishlaridan javoblar qidirdi. Bu vaqtida u “tug‘ma iste’dod” ma’nosini anglatuvchi Fitrat taxallusi bilan ijod etayotgan shoir va yozuvchi sifatida el-yurtga taniqli edi.

1917-yil Fevral inqilobida Fitrat o‘z orzularini ham ko‘rgandek bo‘ldi, biroq Oktyabr to‘ntarishi uning teran dunyoqarashiga yangi titroqlar soldi. Bir qarashda umidbaxsh ko‘ringan, aslida esa, zamirida bosqinchilik g‘oyalari, qatag‘onlik siyosati yashirin havolarda umidlarini goh ichiga yutib, goh oshkor etib yashadi.

Turkistonda til, adabiyot, san‘at masalalari bilan ilk bor tashkiliy ravishda shug‘ullangan “Chig‘atoy gurungi” jamiyatiga rahbarlik qildi. Samarqanddagi Pedakademiyada dars berdi, Toshkentda Fan qo‘mitasi qoshidagi til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo‘lib ishladi. Buxoro Xalq Respublikasining Tashqi ishlar xalq noziri, maorif noziri singari lavozimlardagi faoliyatida Fitratning davlat arbobi sifatidagi fazilatlari namoyon bo‘ldi.

Fitrat o‘zbek adabiyotini istiqlol ruhidagi ajoyib she’rlar, publisistik maqolalar, nasriy asarlar, dramalar hamda tilshunoslik va adabiyotshunoslikning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan teran tadqiqotlar bilan boyitdi.

Uning “Chin sevish” (1920), “Hind ixtitolchilar” (1923), “Arslon” (1925), “Vose” qo‘zg‘oloni” (1927), “Abulfayzxon” (1924), “Shaytonning tangriga isyon” (1924) singari dramatik asarlari muallifga katta shuhrat keltirdi. Bulardan tashqari, Fitratning yana bir qator dramalar yozgani ma’lum, biroq ular bizgacha yetib kelmagan yoxud hozirgacha topilmagan.

Yozuvchi “Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning bir necha

masalalar ham usuli jadid xususida qilg‘on munozarasi” (“Munozara”), “Hind sayyohi bayonoti”, “Qiyomat” nomli nasriy asarlarida zamonning dolzarb muammolarini yoritdi, xalqni ma’rifat va ziyoga chorladi, yurt va yurtdoshlarining taraqqiyatini bo‘lishlarini orzu qildi.

Fitratning eng buyuk orzusi Vatanni ozod, elini erkin ko‘rish edi. Bu yo‘ldagi faoliyati va ijodi esa, mustabid tuzum maqsadlariga zid edi. U ana shu fidoyilikning qurboni bo‘ldi. Fitrat tamomila nohaq ayblar bilan 1938-yil 4-oktyabrda otib tashlandi.

Mustaqillik davriga kelib Fitratning buyuk nomi tiklandi. Hayoti va ijodini atroflicha va chuqur o‘rganish boshlandi. Uch jilddan iborat “Tanlangan asarlar”i bosilib chiqdi. Yuksak saviyadagi asarlari 1991-yilda Alisher Navoiy nomidagi Respublika davlat mukofotiga munosib deb topildi.

Fitrat butun faoliyatini el va yurt ozodligi, taraqqiyot maqsadlariga bo‘ysundirgan, shu zaylda davlatning boshqaruvi tizimini, maorifni, jamiyatni, tuzumni isloh qilish g‘oyalarini ilgari surgan, faylasuf va davlat arbobidir. Shularni amalga oshirajak qahramonlar qiyofasini, orzu, umid, armonlarini badiiy asarlarida gavdalantirgan ulug‘ san’atkordir. Olim sifatida uning tilshunoslik va adabiyotshunoslikda ham xizmatlari katta. Bularning barchasini birlashtiruvchi va uyg‘unlashtiruvchi fazilat Fitratning Milliy uyg‘onish davri jarchisi va yalovbardori ekanidadir.

Adib “Munozara” asarida bir farangi va buxorolik mudarrisning bahsida o‘z ifodasini topgan muammolar orqali yurtdoshlarini shu vaqtgacha hukm surganidan farqlanuvchi hayotga e’tiborini tortadi. Xusan, maorifni isloh etishga, mehnatga yangicha munosabatda bo‘lishga da’vat etadi, dunyoning ilg‘or xalqlaridan o‘rganishga chorlaydi. Ma’lumki, Fitrat Turkistonligi jadidchilik harakatining eng peshqadam vakillaridan biri edi. Bu asarida uning ana shu jadidchilik g‘oyalari o‘zining yorqin ifodasini topdi.

Milliy uyg‘onish g‘oyalari, eng avvalo, shaxs erkinligi, ijtimoiy taraqqiyot muammolarini hal etishga qaratiladi. “Qiyomat” hikoyasi va uning bosh qahramoni Pochamir qiyofasida adib xuddi shu masalalarni talqin etdi. “Shaytonning tangriga isyonii” nomli she’riy dramasida bu muammo yanada keskinroq qo‘yildi. Go‘yoki diniy

xurofot tanqid qilinayotgan yo‘sinda yozilgan dramada muallif o‘zining asl g‘oya va maqsadlarini tag zaminli, yashirin shaklda ifodalaydi. Tangri, Shayton, Malak, Odam aro bo‘lib o‘tgan o‘tkir munozara, bahslar asosida Fitrat asar yozilgan davrda o‘z xalqi uchun nihoyatda muhim bo‘lgan Vatan erki va shaxs erkinligi muammolarini badiiy gavdalantirdi.

Umuman, bu masala Fitrat dunyoqarashi va ijodining mehvaridan o‘rin tutishini ta’kidlash joiz. Shu ma’noda, “Yurt qayg‘usi” rukni ostida berilgan qator mansuralar, sochma she’rlar, mitti publitsistik da’vatnomalar muallifning Milliy uyg‘onish jarchisi sifatidagi qiyofasiga abadiy o‘chmas nur sochib turadi. Mana, ona timsolidagi Vatanga murojaat etilgan ana shunday mansuralarning biridan kichik parcha: “Qayg‘u tutunlari ichra yog‘dusiz qolgan ko‘zlar, u yosh yomg‘urlarin nechuk to‘kadir? Zulm zanjirlari bilan bog‘langan qo‘llaring nechun har yonga uzatiladir, nimatilaysan?..

...Turonim, sendan ayrilmoq-mening uchun o‘limim,

Sening uchun o‘lmoq mening tirikligimdir”.

Fitrat she’rlarining g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishi rang-barang. Uning Turkiyada nashr etilgan (1912) forsiy tilidagi “Sayxa” (“Faryod”) nomli to‘plamlari hamda “O‘zbek yosh shoirlari” (1922) nomli zamонавиј bayozga kiritilgan she’rlari asosini Vatan, erk, muhabbat, armon, orzu, tabiat, xullas, turfa tuyg‘ular tasviri tashkil etadi. Xususan, “Kim deyay seni”, “Achchiqlanma degan eding”, “Nega bo‘yla”, “Yana yondim” singari she’rlari ana shulardandir.

“Shoir” she’ri inson ruhiyatidagi cheksiz tamannolarni, iztirob va evrilishlarni yoritishga bag‘ishlangan. So‘z rujni nechog‘lik yaralamasin, inson umidsiz yashashi mumkin emas. Shoir esa, so‘z va run aro o‘ziga xos bir xilqatdir. Lekin, bu xilqat ishqning shunday bir “eng nozli, erka, injiq yog‘dusidirki, u ma’shuqasidan, ya’ni hayotdan shunga munosib marhamatni ko‘rmoq, topmoq istagi, izlanishi bilan yashab o‘tadi”. Lekin, bularni u faqat o‘zi uchun qidirmaydi, o‘zi uchungina topmaydi. Bularni u “yoz gulining yaprog‘idan to‘qilgan so‘zlar” bilan o‘rab, bizga topshirish uchun izlaydi. Shoir, Fitrat talqinicha, kichik, nozli qanotiga butun bashariyatni qo‘ya oladigan, “o‘ksuz, yo‘qsul ko‘ngillarni” ko‘taradigan bir bulbuldir. Ko‘ryapsizmi, uning mitti

vujudida nechog‘lik xayrli maqsad va qudratli kuch bor. Hayotda esa tushunib-tushunmay, kimlar uni qarg‘ab, kimlar ustidan kulib yuradi. Holbuki, ingrab turgan bu mitti jon qo‘llashga, ko‘makka naqadar muhtoj fikrlar qatiga Fitrat shoirning Vatan ozodligi, erki uchun fidoyi ishchi sifatidagi qiyofasini ham singdirgani shubhasiz. Bu she’rda, shuningdek, ma’lum darajada tasavvufiy g‘oyalar va obrazlar seziladi. Mamlakat va millat erki uchun kurash shoir she’rlarining yetakchi g‘oyasidir. Bu, ayniqsa, “Sharq” she’rida (1920) bo‘rtib ko‘rinadi. Asarda toptalayotgan, zo‘ravon mamlakatlar tomonidan ezilayotgan umumsharq haqida gap borsa-da, muallif uning timsolida, avvalambor, o‘z vatanini nazarda tutadi. Chunki, shu usulni tanlamasa, har tomondan talanayotgan yurt haqida, “*Madaniyat degan g‘arbli olbosti, Boqing, buning ko‘kragidan o‘q bosdi*” deb ochiqdan ochiq yozolmasdi. She’rdagi „*O’tlararo yonib turgan qishloqlar*”, “*Tinch turg‘onlar talandilar omonsiz*” singari o‘tli, g‘azabnok misralar mohiyat e’tibori bilan hayot haqiqatiga, kuni kecha kuli ko‘kka sovurilgan Qo‘qonga, yuholarcha talangan vodiy xalqiga ishora edi. Fitrat she’rda bosqinchilarga nafratini nechog‘lik to‘kib solmasin, Vatanning, diyorning go‘zal manzaralarini chizishga nihoyatda usta. Bosqinchilar toptamasdan burun bu o‘lkada turli xalqlar emin-erkin, ahil, hamjihat yashar edilar:

Bunda turdi har usulning har sasi, Butxonasi, o‘t uyasi, ka’basi.

Talonchilarga xomtalash bo‘lishdan avval bu yurt shunday edi:

Har yonida keng, yam-yashil o‘tloqlar, Jon suvidan yetishkandir gullari.

Bunday she’rlar elga, yurtga Milliy uyg‘onish g‘oyalarini keng yoyish, ko‘ngillarda isyon va tug‘yon alangalarini o‘t oldirish jihatidan muhim ahamiyatga ega edi. Fitrat zamondosh va davradosh adiblardan farqli o‘larоq, asarlarida arab, fors so‘zlarini imkon qadar kamroq qo‘llashga urindi. Fikr, hissiyot, tushunchalarni, asosan, turkiy so‘zlar bilan ifodalashga harakat qildi. Zamonaviy til sandig‘idagi javohirlar yetishmay qolganda qadimgi, tarixiy turkiy so‘zlarga murojaat etdi. Bu xususiyatlar birlashib, Fitrat asarlaridagi badiiy go‘zallikni ta’minlagan holda, o‘zbek adabiy tili mezonlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Fitratning o‘zbek she’r tuzilishini isloh etishga qo‘sghan hissasi ham muhimdir.

Ungacha shoirlarimiz asosan aruz vaznida yozgan bo‘lsalar, Fitrat she’riyatga faol ravishda barmoq vaznini olib kirdi. Aksar she’rlarini shu vaznda yozdi. Bu xalqona vazn she’rni hayotga yanada yaqinlashtirdi. Bu tamoyil boshqa taraqqiy parvar shoirlar ijodiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. U, xususan, Cho‘lpon, Elbek, Botu ijodida yorqin namoyon bo‘lib, XX asrning 20-30-yillaridan o‘zbek she’riyatidagi yetakchi vaznlardan biriga aylandi. Fitrat o‘zbek she’r tuzilishini sochma, sarbast she’rlar bilan ham boyitdi. Shoир misralar vaznidagi erkinlik qatlamiga qofiyalanish tizimidagi keng erkinlikni ham olib kirdi. “Sharq”, “Mening kecham”, “Yana yondim” she’rlari “Yurt qayg‘usi” ruknidagi mansuralar ana shunday asarlardir. O‘zbek she’r tuzilishidagi bu islohot qalb dramasini yanada teran ifodalashda, ayniqsa, qo‘l keldi. Qalb dramasi tasviri Fitrat she’riyatining asosiy xususiyatlaridan biridir. She’rlarida ko‘ringan bu uslub Fitrat dramaturgiyasida yanada teranroq namoyon bo‘ladi.

O‘tgan asrning 20-yillari boshida yozgan “Chin sevish” dramasiga Hindiston hayotidagi voqealarni asos qilib oldi. Chunki, Turkiston hayoti misolida bosqinchilarga qarshi kurash g‘oyasini ilgari surishning iloji yo‘q edi. Asar ko‘proq ma’naviy-ishqiy yo‘nalish asosiga qurildi. Lekin, unda ijtimoiy dard yetarlicha ko‘rsatilmadi deb topdi, shekilli, muallif ko‘p o‘tmay shu yo‘nalish kuchaytirilgan boshqa bir asar yozishga kirishdi. Natijada, avvalgi asardagi bosh g‘oya va qahramonlar saqlab qolinib, milliy istiqlol ruhi kuchaytirilgan deyarli yangi drama – “Hind ixtitolchilar” dramasi paydo bo‘ldi. Asar markaziga vatanni bosqinchilardan ozod qilishni hayotning bosh mazmuni deb bilgan Rahimbaxsh va sevgilisi Dilnavoz obrazlari qo‘yildi. Abdusubbuh, Badrinad, Fayziahmad va Mahmudxon Rahimbaxshning hammaslaklari. Kelishmovchiliklarni, diniy, irqiy, g‘oyaviy, sinfiy va boshqa ixtiloflarni bir chekkaga yig‘ishtirib qo‘yib, birlashish va Ona tuproqni bosqinchilardan ozod etib, Hindistonni mustaqil qilish kerak, degan g‘oya asarning asosini tashkil etadi. Fitrat shu tariqa, o‘z armonini Hindiston tasviri orqali ilgari surdi, yurtdoshlarini shu tarzda kurashga chorladi.

“Arslon” nomli besh pardali pyesasida (1925) Buxoro amirligidagi dehqonlarning og‘ir hayoti va qismatini tasvirladi. Arslon – dramaning bosh qahramoni. U to‘yga yig‘ib yurgan pulini sarflab, bir bechora kambag‘al yigitni xonavayron bo‘lishdan saqlab

qoladi. To‘lg‘inoyni cheksiz sevishiga qaramay, endi to‘y qilishning imkoni yo‘q. Fursatdan foydalangan 50 yoshli sudxo‘r Mansurboy 18 yoshli To‘lg‘inoysta og‘iz soladi. Qiz sevgisida qat’iy, lekin Arslonga yetishishga u ham chorasiz. Drama shu muhabbat iztiroblarini va adolat uchun kurash jarayonlarini ko‘rsatadi. Sinfiylik nazariyasiga qat’iy amal qilish, boylarni butkul qoralab, kambag‘allarni nuqul ulug‘lash talab qilingan bir sharoitda Fitrat bu mafkuraviy ko‘rsatmalarga amal qilmadi. Realist san’atkor sifatida o‘z e’tiqodiga sodiq qoldi. Ziddiyatlarni sinflar aro emas, shaxslar aro bo‘ladigan hayotiy qarama-qarshilik sifatida ko‘rsatdi. Bek, Yasovulboshi, Darg‘a singari amaldorlardagi xislatlar ham sinfiy mansubiyat sifatida emas, hayotdagi jonli odamlar tabiatini tarzida talqin qilindi.

Fitratga qadar o‘zbek adabiyotida qator dramatik asarlar yozilgan. Dramaturgiyamiz tarixida ular o‘ziga yarasha o‘rin tutadi. Biroq, jahon mezonlar talabiga javob bera oladigan milliy ruh va milliy g‘oya bilan sug‘orilgan, teran qahramonlar aks etgan bu turdagiga yetuk asarlarning muallifi sifatida Fitrat o‘zbek dramaturgiyasining asoschisi hisoblanadi. Fitrat elni, yurtni ozod va obod ko‘rish dardini dramaturgiyada ham to‘kib soldi. Qahramonlarni jonli, hayotiy, tarixiy haqiqatga mos tarzda realistik aks ettirish, ayniqsa, “Abulfayzxon” tragediyasida yorqin namoyon bo‘ldi. “Abulfayzxon” nainki Fitrat ijodi, balki umuman, o‘zbek dramaturgiyasidagi shoh asarlardan biridir.

Yoshlarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash uchun, avvalo, ularda ona tili va badiiy adabiyotga nisbatan hurmatni, muhabbatni uyg‘otishimiz kerak. Chunki til, adabiyot bor ekan, millat ham yashaydi. Bizga tarixdan ma’lumki, chor Rossiyasi bosqini davridan mahalliy barcha ishlar ana shu tilda olib borilgan. Bosib olingan hududlarda rus tili majburan o‘rgatilib, xalqlar tillarini yo‘q qilishga urinishlar bo‘lgan. Shunga qaramay, har bir millat vakillari o‘z ona tillari, ma’naviyati, tarixini saqlab qolish uchun qattiq kurash olib borganlar. Xususan, XX asr boshlarida bu hududlarda ma’rifatparvarlik harakatlari boshlangan. Ular ham yurt mustaqilligini qayta tiklash uchun, eng birinchi navbatda, o‘z ona tillarini katta e’tibor qaratishgan.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o‘z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixni bilishga, o‘zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu – tabiiy hol. Insoniyat borki, avlod-ajdod kimligini, nasl-nasabini, o‘zi tug‘ilib voyaga yetgan qishloq, shaharining, Vatanining tarixini bilishni istaydi. Hozir O‘zbekiston deb ataluvchi hudud, ya’ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq balki, umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olim-u siyosatchilar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan. Biz ma’rifat so‘zini ko‘p bora takrorlaymiz birinchi Prizidentimiz I.Karimov aytganlaridek: “Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch – ma’rifatdir”<sup>4</sup>.

Asrimiz boshida Turkistonda kechgan voqealarni eslashimizning o‘zi nega o‘sha yillari ma’rifatchilik harakatlarining har qachongida ham kuchayib ketishi, Chor Rossiyasi asoratiga tushib qolib, butkul tanazzulga yuz tutgan o‘lkani uyg‘otishga, xalqning ko‘zini ochishga, faqat ma’rifat orqaligina erishishimiz mumkinligi bilan ahamiyatlidir. Ma’rifatparvarlik biz uchun bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, yo‘qotmaydi ham.

Ma’naviyat, marifatni targ‘ib qilish har bir ziyolining vijdon ishidir. Ma’rifatchi fidoyi bo‘lmog‘i kerak. XX asr boshidagi ma’rifatchilik harakatlari, o‘sha harakatning namoyondalari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Tavallo, Fitrat kabilar maktab ochganlari, istibdodga qarshi kurashganliklari uchun ayovsiz jazolanishlarini oldindan yaxshi bilgan va bila turib ongli ravishda mana shu yo‘ldan borganlar. Chunki, vijdonlari va iymonlari shunga da’vat etgan.

XX asr faqat o‘zbek xalqi hayotida xayotida emas, balki butun dunyo hayoti alg‘ov-dalg‘ovlarga boyligi bilan ajralib turadigan davr bo‘ldi. Ijtimoiy hodisalarining almashinish sur’ati aqlga sig‘mas darajada tezlashdi. Jadid adabiyoti to‘lig‘icha millatni uyg‘otishga qaratilgan edi. Bu adabiyotning qahramoni avvalgi davrdagiday yuqori tabaqa vakillari yoki ilohiy qudrat bilan nurlantirilgan siymolar emas, balki

<sup>4</sup> I. Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008. 47-bet

ommaning ichidan chiqqan, unga qaytib boradigan va shu bois xalqiga ta'sir ko'rsatish imkonyati kattaroq bo'lgan oddiy kishilar edi. Jadid yozuvchilari shunchaki ijodkor emas, balki jamoatchi ham edilar. Ular faqat qalami bilan emas, balki ijtimoiy siyosiy ma'rifiy amali bilan ha millatni uyg'otishga ahd qilgandilar. Agar ma'rifatchilar ko'p asrlik milliy adabiyotga yangi mavzular olib kirgan bo'lsa, jadidlar o'zbek adabiyotiga drama, roman, hikoya singari yangi janrlarni kiritdilar. Jadid adiblarning asarlarida insoniy taqdirlar qismat fojiyalari, millat ozodligi inson erki, vatan buyukligi muammolari fonida aks ettirildi. Jadid adabiyotida tarixiyadolat, siyosiy tenglik, shaxs va millat erki, xalqni g'aflatdan uyg'otish singari o'tkir ijtimoiy muammola juda ko'p tasvirlanadi. Jadidlarning vatan, millat, xalq ozodlik yo'lida jon fido etishga chorlab bitilgan olovli asarlari samimiy ammo, yuksak darajada ijtimoiylashgan shaxslarning nidolari edi. Bunday asarlarda millatning ulkan dardi ma'rifatli insoning shahsiy fojeasi bilan birgalikda ifoda etilardi. Tuyg'ular samimiyati, iztirob ko'laming kengligi ruhi dardlar teranligini oshirib, umumning dardi alohida shaxsning g'ami yetuklik darajasiga ko'tariladi. Odatda ko'pchilikning iztiroblari alohida shaxslarning dardlaridan baland turadi deb hisoblanadi. Holbuki, dard xususiylashsagina umuminsoniy miqyos kasb etadi. Sho'rolar davrida o'zbek adabiyotining mohiyati tubdan o'zgardi. Lekin bu birdaniga sodir bo'lmadi. 1917-yilgi oktyabr to'ntarilishidan keyingi dastlabki davrlarda ham so'z va ijod erkinligi bir qadar saqlandi. Sho'rolar yetarlicha siyosiy va tashkiliy kuchga ega bo'lmagani, uning g'oyalarini kuylaydigan adiblar qatori hali shakllanmagani chun badiiy adabiyotda nisbatan erkinlik bor edi. Eng iste'dodli ijodkorlar, tabiiy ravishda, millat va vatan ozodligi uchun kurashayotgan jadid yozuvchilar safida edi. Yozuvchilar safida Abdurauf Fitrat o'zbek xalqi hayotida XX asr tongida boshlangan yangi Milliy uyg'onish davri va uyg'onish adabiyotining buyuk vakilidir.

Jadid adabiyoti nomoyondalari ijodini o'rganish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularning tajribalaridan unumli foydalanish biz yoshlarning muqaddas burchimizdir. Shu maqsadda maktab, kollej, akademik litsey va oliy o'quv

yurtlarida jadid adabiyoti namoyondalarining hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Amaldagi davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlarida adabiyot darslarida jadid adabiyoti namoyondalari hayoti va ijodini o‘rganishga dars soatlari belgilab berilgan. O‘quv dasturida Abdurauf Fitrat hayoti va ijodini o‘rganishga ajratilgan dars soatlari quyidagicha belgilangan: 5, 6, 7, 9-sinf adabiyot darsliklarida Abdurauf Fitrat hayoti va ijodini o‘rganishga doir dars soatlari ajratilmagan. 8-sinf adabiyot darsligida Fitrat hayoti va ijodini o‘rganishga 3 soat ajratilgan bo‘lib, u XX asr o‘zbek adabiyoti bo‘limiga kiritilgan. Ushbu mavzuni o‘rganish davomida o‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘ladilar: ”Fitrat hayoti va ijodi haqida ma’lumot. Fitratning iste’dodli olim, taniqli dramaturg bo‘lish bilan birga xassos shoir ham ekanligi.

”Mirrix yulduziga” istiqlol orzusi bilan yaratilgan asar sifatida. She’rning Oktyabr to‘ntarishidan keyingi yangi hokimiyat, uning boshida turgan “bir o‘lkani yondirib, o ‘z qozonin qaynatg‘uvchi hoqonlar”, “el-yurtini sotgan” xiyonatkorlar ustidan o‘qilgan badiiy hukm ekanligi. Asardagi shoir dardi va ijodiy jasorati. Mirrix yulduziga murojaat etish – o‘ziga xos poetik usul sifatida. ”O‘gut” – bugungi kun yoshlari uchun ham ahamiyatini yo‘qotmagan she’r ekanligi. ”Go‘zalim, bevafo gulistonim” – shoir ishqiy lirikasining mumtoz na’munasi sifatida keltirilgan. She’rda sevgida vafodorlik va fidoyilikning madh etilishi, rad etilgan muhabbat iztiroblarining obrazli tasviri ifodalangan”.

Darslikda Fitratning ”Mirrix yulduziga”, ”Go‘zalim, bevafo gulistonim” she’rlari o‘quvchilarga mustaqil yod olish uchun vazifa sifatida berilgan.

10-11-sinf adabiyot darsliklarida va o‘rta maxsus kollejlarning ona tili va adabiyot darsligida ham Abdurauf Fitrat hayoti va ijodini o‘rganishga dars soatlari ajratilmagan. Akademik litseyning 3-kurs adabiyot darsligida adib hayoti va ijodini o‘rganishga 4 soat ajratilgan bo‘lib, unda Fitrat hayoti va ”Abulfayzzon” dramasidan parcha o‘rin olgan. Bundan tashqari darslikka o‘quvchilarga mustaqil o‘qib o‘rganishlari, tahlil qilishlari va yod olishlari uchun ”Bir oz kul”, ”Mirrix yulduziga”, ”O‘qutg‘uvchilar yutriga” she’rlari ham kiritilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, kollej va litsey dastur va darsliklarida adabiy ta’limda adib ijodining o‘rganilishi uchun ja’mi 6 soat ajratilgan.

## **1.2. Fitrat ijodini o‘rganish yuzasidan zamonaviy darslar tashkil etish**

Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida, ayniqsa, intelluktual rivojlanishida XXI asr katta o‘zgarishlarga boy davr bo‘lmoqda. Taraqqiyot o‘z ortidan ta’limni ergashtirib, o‘ziga yanada katta e’tibor talab etmoqda. Ushbu jarayondagi mavjud muammolarni hal etishda bugun kadrlarni o‘qitish va malakasini oshirish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Bu o‘z navbatida o‘quv dasturlari va rejalarini ishlab chiqish, ta’lim jarayonini tashkil etishda yangicha yondashuvlarni talab etmoqda.

Maktab ta’limini rivojlantirish, ayniqsa, ta’lim jarayonini maqsadli tashkil etishda pedagogning boshqaruvchilik mahorati asosiy omillardan biridir. Chunki pedagog qanchalik bilimdon bo‘lsa, o‘z ishini sevs, yangi samarali tajribalarni egallash ustida tinimsiz ishlasa, o‘zi yangiliklar ijod etish uchun izlansa, uning darsida ta’limning samarasini yuqori bo‘lishi shak-shubhasiz.

Ma’lumki, har qanday pedagogik texnologiya “ta’lim beruvchi – jarayon – ta’lim oluvchi” munosabatida tashkil etiladi, ya’ni ta’limning bu jarayonida ta’lim beruvchi ham, ta’lim oluvchi ham bir chiziqda faoliyat olib boradi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchining o‘zi izlanishi, muammolar yechimini o‘zi topishi, guruhlarda do‘stona muhitni yuzaga keltirishi, mantiqiy fikrlab yakdil qaror chiqarishi, fikrlarini asosli, erkin va ravon bayon etishi uchun shart-sharoit yaratadi. Ta’lim beruvchining o‘zi esa dars jarayonining tashkilotchisi, boshqaruvchisi, yo‘naltiruvchisi, kuzatuvchisi, nazoratchisi, ta’lim oluvchi (o‘quvchi yoki tinglovchi)ning do‘sti, hamkor, yordamchisi sifatida faoliyat yuritadi<sup>5</sup>.

---

<sup>5</sup> Umarova M. Fitratning “Abulfayzxon” fojiasida badiiy vaqt talqini // Til va adabiyot ta’limi. –Toshkent, 2009. 4-son. 34-46-bet.

Milliy istiqlol sharofati tufayli respublikamizda boshqa ijtimoiy sohalar qatori ta’lim va tarbiya sohasining ham umumjahon ta’lim standartlariga mos holda rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar, moddiy va ma’naviy shart-sharoitlar yaratildi. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta’lim-tarbiya sohasida olib boriladigan ishlarning daturilamali bo‘lgan “Kadrlar tayyorlash millliy dasturi” mohiyati haqida shunday degan edi: “Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydi. Agar bola erkin, mustaqil fikrlashni o‘rganmasa, unga berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak, ammo bilim o‘z yo‘liga, mustaqil fikrlash katta boylikdir<sup>6</sup>”.

Ta’limga shunday katta e’tibor qaratilayotgan bir davrda har bir o‘qituvchi, ustoz nomini ko‘tarib yurgan fidoiy inson o‘quvchilarning yaxshi va yetarli bilim berishga harakat qilishi lozim. Biz adabiyot fani o‘qituvchilarining oldidagi muhim vazifalardan biri ham aynan shudir.

Fitrat ijodini o‘rganish yuzasidan zamonaviy darslar tashkil etish xususida gapiradigan bo‘lsak, turli metod va usullardan foydalanishimiz mumkin. Bu kabi zamonaviy darslar albatta o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Fitrat ijodini o‘rganish yuzasidan zamonaviy darslar tashkil etish uchun quyida beriladigan texnologiya va metodlardan foydalanishimiz mumkin:

### ***“Blits-so‘rov” metodi***

“Blits-so‘rov” metoddan mavzuni mustahkamlash qismida foydalanish o‘quvchilarning adib hayoti va ijodini qay darajada o‘qib tushunganini kuzatishda yordam beradi.

Nº	Asarlar	She’r	Hikoya	Roman	Drama	G‘azal	Doston	Pyesa
1	“Chin sevish”				+			
2	“Mirrix yulduziga”	+						

---

<sup>6</sup> Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T.: “Sharq”, 1998. 33-bet.

3	“Abulfayzxon”				+			
4	“Yurt qayg‘usi”	+						
5	“Abo Muslim”							+
6	“Qiyomat”		+					
7	“Me’roj”		+					
8	“Temur sag‘anasi”							+

### *Insert texnologiyasi*

Amerikalik pedagoglar tomonidan taqdim etilgan adabiyotlarda “Notanish” matnni “Insert” usuli yordamida o‘rganilsa, samarali bo‘lishi nazarda tutiladi. Chunki har bir darsda o‘quvchilar yangi ma’lumotlar, manbalar va yangi shaxslar hayoti bilan tanishishlari kerak bo‘ladi.

O‘quvchi matnni oxirigacha o‘qib chiqib, hozir o‘qiganlaridan hech narsani mutlaqo eslab qolmasligi ko‘p o‘quvchilar uchun oddiy hol hisoblanadi. “Insert” usuli orqali o‘qish esa tushunib o‘qish, o‘qish jarayonida faol bilim olish imkonini beradi. Insert (belgi qo‘yib o‘qish) – o‘qish va yozishni samarali amalga oshirishda, o‘quvchilarda darslik bilan ishslash ko‘nikmalarini shakllantirishda, ayniqsa, qulay usul. Konspekt yozishning interfaol usuli. Unda belgilar quyidagicha bo‘lishi kerak: “V” – bilaman. “\_” – o‘ylaganimga zid, notanish. “+” – yangilik. “?” – tushunmadim, ya’ni qo‘srimcha ma’lumot kerak.

“Insert” texnologiyasidan Abdurauf Fitrat hayoti va ijodini o‘rganish jarayonida keng foydalanishimiz mumkin. Bu o‘quvchilarning mavzuni eslab qolish va chuqr fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlanishiga yordan beradi.

“Abulfayzxon” dramasini “Insert” asosida quyidagicha o‘rganish mumkin:

“V”	“_”	“+”	“?”
-----	-----	-----	-----

“Abulfayzxon” dramasining tarixiy asar ekanligini bilar edim.	Abulfazxonni masuliyatsiz va loqayd deb o‘ylamagan edim.	Dramada faqat Abulfazxon hukmronligi emas, butun Ashtarxoniyalar davri yoritilgan ekan.	Butun boshli sulola hukmronligi nima sabadan tarqoq bo‘lib ketganiga tushuna olmadim.
---	--	---	---

### ***FSMU texnologiyasi***

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, babs-munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv seminari yakunida o‘quvchilarning o‘quv mashg‘ulotlari hamda o‘tilgan mavzu va bo‘limlardagi ba’zi mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida, o‘quv rejasi asosida biror-bir bo‘lim o‘rganilgach qo‘llanilishi mumkin. Chunki bu texnologiya o‘quvchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlashga o‘rgatadi.

Bu texnologiyadan foydalanishda o‘qituvchi har bir o‘quvchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog‘oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to‘ldirishni iltimos qiladi. Bunda:

F	“Abulfayzxon” dramasi Abdurauf Fitratning eng mashhur va o‘lmas asarlaridan biridir.
S	“Abulfayzxon” dramasida yaxshilik va yomonlik, mehr va shafqatsizlik, muhabbat va nafrat kabi asriy muammolar o‘z ifodasini topganligi bois u umrboqiyidir.
M	Asardagi ota va bola, amaldorlar, umuman, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar har bir davr o‘quvchi yoki kitobxoni uchun saboq berish, vaziyatdan to‘g‘ri xulosa chiqarish imkonini beradi. Asardan parcha: <b>“Ibrohimbiy.</b> Tuna kun Abulfayzonni soyai xudo deb oyoqlarini o‘pmag‘on edingizmi? Abulfayzxon xotunlar bilan ichishib yotg‘on bir

	<p>kechaning ertasinda, uning oldig‘a kelib: “Bu kecha tushimda payg‘ambarni ko‘rdim, sizni so‘rab yubordilar”, deb, chopon kiyganingizni unutdingizmi? Tuna kun sizga chopon bergan soyai xudoning o‘limiga bu kun fatvo berasiz, hech uyolmaysizmi? Tushingizda Abulfayzxonni so‘rag‘on payg‘ambar, yana bir yo‘la tushingizga kirib, uni so‘rasalar, nima deysiz? Bunlar oz emish kabi Chingizzxonning yasog‘ini ham yo‘q qilmoqchi bo‘lasizmi?</p> <p><b>Doniyolbiy.</b> Otaliq aka, shariatning hukmi shu ekan-da.</p> <p><b>Ibrohimbiy.</b> Men shariat-mariatni bilmayman. Ishingizni to‘g‘rilamoqchi bo‘lsangiz, qurultoy chaqirasiz. Bunlarning so‘zi yarim chaqag‘a arzimaydir”.</p>
U	Qaysiki asar milliy qadriyatlarni, ezgulikni ulug‘lar ekan, bu asar uzoq yillar davomida kitobxon uchun o‘lmas asar bo‘lib qolaveradi.

Izoh:

**F** – fikringizni bayon eting

**S** – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating;

**M** – ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

**U** – fikringizni umumlashtiring.

O‘quvchilar asarni o‘qib tugatgach, yuqorida berilgan FSMU jadvalini to‘ldirish orqali asar mazmunini tahlil qiladilar. Bu texnologiya o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, o‘quvchilarga quyidagi vazifa topshirilishi mumkun: “Abulfayzon – o‘lmas asar” mavzusi bo‘yicha fikrlaringizni bayon qiling. Bunda o‘quvchilar fikrlarini yuqoridagi jadval kabi bayon qiladilar. Yoki o‘qituvchi asardagi qahramonlar xarakter xususiyatlarini tahilga tortish jarayonida ushbu texnologiyadan foydalanishi mumkin.

### *Xronologik jadval metodi*

Xronologik jadval metodi yozuvchi hayoti va ijodini o‘rganishda o‘quvchilarning diqqati va xotirasini rivojlanishiga yordam beradi. Abdurauf Fitrat hayoti va ijodini mustahkamlash darsida ushbu metoddan foydalanish mumkin.

Yillar	Adib hayoti va ijod yo‘li bilan bog‘liq voqealar
1886-yil	Abdurauf Fitrat tavallud topgan.
1902-1903-yillar	Abdurauf Fitrat haj safariga chiqqan.
1906-1908-yillar	Rossiyaning turli shaharlariga sayohat qiladi.
1908-yil	“Munozara” asarini yozadi.
1908-1913-yillar	Istanbuldag‘i Voizon madrasasida tahsil oladi.
1910-yil	“Sayha ” asarini yozadi.
1913-yil	“Hind sayyohi” asari nashr qilinga, Istanbulda.
1915-yil	“Yosh buxoroliklar” harakatiga boshchilik qiladi.
1915-1916-yillar	“Rahbari najot” asarinashr qilingan.
1917-1920-yillar	“O‘qu”, “Sharq siyosati”, “Yig‘la, islom” asarlari chop etiladi.
1919-1920-yillar	Afg‘oniston amirligining Toshkentdag‘i vakolatxonasida tarjimonlik qildi.
1920-yil	“Tong” jurnalini tashkil qiladi.
1921-yil	Buxoroda Sharq musiqasi mifikini tashkil etib, bu mifikning birinchi direktori lavozimida ishlaydi.
1922-yil	Fitrat tashabbusi bilan „O‘zbek yosh shoirlari“ she’riy to‘plami bosilib chiqdi.
1923-yil	“Hind ixtilochilari” pyesasi yozilgan.
1923-1927-yillar	Moskvadagi Sharqshunoslik institutida ishlagan.
1924-yil	“Abulfayzxon”, “Shaytonning tangriga isyon” pyesalarini yozgan.
1934-yil	“To‘lqin” pyesasini yozadi.
1937-yil	1937-yilda ko‘pchilik qatori Fitrat ham NKVD tomonidan

	qamoqqa olingan.
1938-yil	Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat Toshkent shahrining hozirgi Yunusobod tumani Bo‘zsuv qirg‘og‘idagi qatlgohda otib o‘ldirildi.
1963-yil	Abdurauf Fitrat nomi oqlandi.

Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitrat hayoti va ijodini o‘rganish uchun zamonaviy darslar tashkil qilishda yuqoridagi kabi metod hamda texnologiyalardan foydalanishimiz mumkin. Darslarni tashkil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, yuqorida aytib o‘tilganidek, dars samaradorligining oshirilishiga, o‘quvchilarning darsga qiziqishlari uyg‘onishiga, bilim olish imkoniyatlarining yanada kengayishiga katta yordam beradi.

## **II BOB. “ABULFAYZXON” DRAMASINI O‘RGANISHGA INNOVATSION YONDASHUV**

### **2.1. “Abulfayzxon” dramasini o‘rganishda noan’anaviy metodlar**

“Abulfayzxon” dramasini o‘rganishda noan’anaviy metodlar haqida gapirishdan oldin an’anaviy va noan’anaviy ta’lim shaklari haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq. Chunki bugungi kunga qadar asosiy darslar an’anaviy shaklda tashkil qilingan bo‘lib, noan’anaviy darslarga unchalik ham e’tibor qaratilmagan. Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda ta’lim sohasiga e’tibor kuchaya bordi va

bugungi kunga kelib yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish asosiy ustuvor vazifaga aylandi.

An’anaviy dars – muayyan muddatga mo‘ljallangan, ta’lim jarayoni ko‘proq o‘qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta’lim modelidir. An’anaviy dars o‘tish modelida ko‘proq ma’ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalilanadi. Shu sabab, bu hollarda an’anaviy dars samaradorligi ancha past bo‘lib, o‘quvchilar ta’lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman o‘quvchilar faolligini oshiradigan metodlar bilan boyitib borilsa, o‘quvchilar o‘zlashtirish darajasini ko‘tarilishiga olib keladi.

An’anaviy dars shakllarining quyidagi afzalliklari va kamchiliklari mavjud:

#### **Afzalliklari:**

- Ma’lum ko‘nikmalarga ega bo‘lgan va aniq ma’lum tushunchalarni, fanni o‘rganishda foydali.
- O‘qituvchi tomonidan o‘qitish jarayonini va o‘qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi.
- Vaqtidan unumli foydalanish.
- Aniq, ilmiy bilimlarga tayanish.

#### **Kamchiliklari:**

- O‘quvchilar passiv ishtirokchi bo‘lib qoladilar.
- O‘qituvchining to‘la nazorati barcha o‘quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi.
- O‘quvchilar o‘qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi.
- Eslab qolish darjasini hamma o‘quvchilarda bir xil bo‘limganligi sababli, sinf bo‘yicha o‘zlashtirish darjasini past bo‘lib qolishi mumkin.
- Mustaqil o‘rganish va yechimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi

Noan’anaviy darslarda esa asosiy e’tibot o‘quvhciga qaratiladi va asosiy ishtirokchi o‘quvchi bo‘ladi. Noan’anaviy darslarda dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim

jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi zarur. O‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, tadqiqot rolli o‘yinlar metodlarini qo‘llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, o‘quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, rang-barang baholash usullaridan foydalanish, ta’lim vositalaridan o‘rinli foydalanish talab etiladi. Bunday darslarning ham o‘ziga yarasha yutuq va kamchiliklari mavjud:

#### **Afzalliklari:**

- O‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib kelishi.
- O‘z vaqtida aloqalarning ta’minlanishi.
- Tushunchalarni amaliyotda qo‘llash uchun sharoitlar yaratilishi.
- O‘qitish usullarining turli xil ko‘rinishlari taklif etilishi.
- Motivatsiya yuqori darajada bo‘lishi.
- O‘tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi.
- Muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishi
- O‘z-o‘zini baholashning o‘sishi.
- O‘quvchilarning predmetning mazmuniga, o‘qitish jarayoniga bo‘lgan ijobiy munosabati.
- Mustaqil fikrlay oladigan o‘quvchining shakllanishiga yordam berishi.
- Tanqidiy va mantiqiy fikrlashning rivojlantirishi.
- Muammolar yechish ko‘nikmalarining shakllanishi.

#### **Kamchiliklari:**

- Ko‘p vaqt talab etilishi.
- O‘quvchilarni har doim ham keraklicha nazorat qilish imkoniyatining pastligi.
- Juda murakkab mazmundagi material o‘rganilayotganda ham o‘qituvchi rolining past bo‘lishi.
- “Kuchsiz” o‘quvchilar bo‘lganligi sababli “kuchli” o‘quvchilarning ham past baho olishi.

- O‘qituvchining o‘zi ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko‘nikmalariga ega bo‘lishining talab etilishi.

Ko‘rinib turibdiki, noan’anaviy dars tashkil qilinishi ta’limda nisbatan samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” dramasini noan’anaviy shaklda tashkil qilish jarayonida qanday metodlardan foydalanish mumkin degan savolga javob berishga harakat qilamiz.

Ta’lim va tarbiya jarayonida interfaol metodlarning o‘rni va imkoniyatlari beqiyosdir. Interfaol metod – ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollilikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish, ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar soni kamligi, seminarlar soni ko‘pligi, o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat. Interfaol metodlarni mashg‘ulot maqsadiga muvofiq tanlash lozim. Quyidagi interfaol metodlar mavjud:


- “Tushunchalar tahlili”
- “Sinkveyn”
- “Venn diagrammasi”
- “Zinama-zina”
- “Galereya”
- “Blits so‘rov”
- “Insert”
- “FSMU” va boshqalar.

Yuqorida nomlari sanalgan interfaol metodlardan “Abulfayzxon” dramasini o‘rganishda qanday foydalanishimiz mumkinligi haqida to‘xtalib o‘tsak.

**“Tushunchalar tahlili” metodi.** Ma’lumki, bu asar tarixiy asar bo‘lib, unda bir qator tarixda so‘zlashuv nutqida bo‘lgan va bugungi kunga kelib eski qatlamga

aylangan ayrim tushunchalar mavjud. Ushbu metod orqali mana shunday tushunchalar ustida ishlanadi.

Abdurauf Fitratning “Abulfayzzon” dramasini o‘rganishda didaktik o‘yin texnologiyasidan ham foydalanishimiz mumkin.



### **Didaktik o'yinli mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlari**

<b>Didaktik o'yinli mashg'ulotlar</b>	<b>Mavzu mazmuni qanday bo'lganda mazkur mashg'ulotdan foydalaniлади</b>	<b>Mashg'ulotlarning didaktik funktsiyalari</b>	<b>Talabaning faoliyati</b>
Sujetli-rolli	Fanning turli sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish, tabiatdagi va kundalik hayotdagi muammolarni hal etish imkoniyati bo'lganda	Kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni, tabiat ob'ektlari va tabiiy hodisalar o'rtaсидаги aloqalar va bog'lanishlarni adabiy-badiiy tarzda yoritish	Muayyan rollarni bajarish orqali bilim, ko'nikmalarni egallah

Ijodiy o‘yin	Avval o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyati bo‘lganda	Muammoli vaziyatlarni avval o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni ijodiy qo‘llash orqali hal etish	Ijodiy izlanish orqali yangi mavzuni o‘zlashtirish
Ishbilar-monlar o‘yini; Auksion	Turli obyektlarga tavsif berish, ularni taqqoslash imkoniyati bo‘lganda	Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida talabalarning dunyoqarashini kengaytirish, kasbga yo‘llash	Auktsionda ishtirok etish orqali yangi mavzuni o‘zlashtirish
Konferensiya	Fanning turli sohalariga oid bilimlar mujassamlashgan va qo‘lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish imkoniyati bo‘lganda	Qo‘srimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirish, ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishslash, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, kasbga yo‘llash	“Olimlar” maqomini olib, muayyan mavzularda izlanishlar olib boorish
Matbuot konferensiyasi	Fanning turli sohalarini qamrab olgan, talabalarning avval o‘zlashtirgan bilimlaridan foydalanish lozim bo‘lganda	Qo‘srimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirish, darslik, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishslash	“Olimlar” va “Muxbirlar” maqomini olib mavzuni o‘zlashtirish

Xulosa qilib aytganda, bugungi taraqqiyot zamonida ta’limda ham turli usullar bilan yaxshi samaraga erishish imkoniyatlari mavjud. Xususan, badiiy asarlarni tahlil qilish jarayonida o‘quvchiga yaxshi tushunilishi uchun yuqoridagi kabi metodlardan foydalanib, noan’anaviy dars jarayonlarini tashkil qilishimiz mumkin ekan. Shunday bo‘lsada, har bir o‘qituvchi doim izlanishda bo‘lishi va darsni imkon boricha ilg‘or texnologiyalar asosida tashkil qilishga harakat qilishi lozim, deb o‘ylayman.

## **2.2. Darslarda “Abulfayzxon” dramasi tahlili orqali o‘quvchilarning adabiy-nutqiy va badiiy tahlil kompetentsiyalarini rivojlantirish**

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so‘ng barcha sohalar kabi ta’lim da ham ulkan islohotlar amalga oshirildi. “Ta’lim to‘g‘risida” hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlarning ijrosini ta’minalash borasida ta’limning barcha bosqichlari uchun davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari yaratildi. Katta kuch va mablag‘ hisobidan ta’lim muassasalarining zamonaviy moddiy-texnika bazasi barpo etildi. O‘quvchilarni darslik bilan ta’minalashning ijara

tizimi ishga tushirilib, maktab yoshidagi bolalarning barchasi darsliklarga ega bo‘lishdi. Zamon taraqqiy etgan va o‘zgargan sari o‘zining talablarini ham har bir sohaga qo‘yib bormoqda. Mazkur o‘zgarishlarga mos ravishda o‘z ishini qayta tayyorlay oladigan, yangiliklarni o‘z hayotiga joriy qila oladigan kompetent pedagog-o‘qituvchini tarbiyalash va tayyorlash vazifasi xalq ta’limi tizimida ustuvor maqsadga aylangan. Shunga ko‘ra, amaliyotda qo‘llanilayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarga asoslangan davlat ta’lim standartlarini ham kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqish zaruriyati tug‘ildi.

Dunyoning rivojlangan davlatlari hamda mamlakatimizda uzlusiz ta’lim tizimining chet tillari bo‘yicha davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish tajribasi asosida O‘zbekiston respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, xalq ta’limi vazirligi va O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi markazining 2013-yil 4-iyundagi “Umumta’lim fanlari bo‘yicha uzlusiz ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori qabul qilindi. Unga asosan umumiyo‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qitiladigan 18 ta umumta’lim fanlari bo‘yicha rivojlangan davatlarning ta’lim standartlarini o‘rganish natijalaridan hamda mamlakatimizda xorijiy tillardan uzlusiz ta’lim tizimining davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish tajribasidan kelib chiqib, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan umumta’lim fanlari bo‘yicha uzlusiz ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari loyihalari tayyorlandi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan standart va o‘quv dasturlari o‘quvchilarda egallagan bilimlarni hayotda qo‘llay olish, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, o‘z huquq va majburiyatlarini chuqur anglash, mamlakat kelajagi yo‘lidagi mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil ta’lim olish kabi ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Mazkur DTS va o‘quv dasturlari loyihalari respublikamiz viloyatlaridagi tajriba-sinov maydonchalarida sinovdan o‘tkazilmoqda. Ushbu tajriba-sinov natijalari

asosida o‘quv chilarda shakllantirilishi zarur bo‘lgan quyidagi kompetensiyalar belgilab olindi:

- 1. Tayanch kompetensiyalar.**
- 2. Fanga oid umumi kompetensiyalar.**

**Tayanch kompetensiyalar** – insonning shaxs sifatida shakllanishi, kundalik hayotida muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan layoqatlar, qobiliyatlar, ko‘nikma va malakalardan iboratdir. Ular hozirgi kunda tadqiqot natijalariga ko‘ra oltita deb olingan.

- Kommunikativ kompetensiya.
- Axborotlar bilan ishslash kompetensiyasi.
- Shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi.
- Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi.
- Milliy va umummadaniy kompetensiyalar.
- Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

Bundan tashqari, ta’limda har bir o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarda shu fanning o‘ziga xosligi va mazmunidan kelib chiqib, sohaga tegishli fanga oid umumi kompetensiyalar shakllantiriladi. Bugungi kunda biror bir o‘quv faniga oid umumi va aniq kompetensiyalar miqdori nechta bo‘lishi kerak, degan savolga ilmiy tadqiqotchilar orasida yakdillik mavjud emas. Mazkur masala bo‘yicha har tomonlama tadqiqotlar amalga oshirilishi talab etiladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda bugungi kunda olimlar, metodistlar va tajriba-sinov olib borayotgan fan o‘qituvchilaridan iborat ishchi guruh kompetensiyalarni shakllantirishda o‘zaro bir xil atamalarni tanlab olishi, shakllantirish uchun maqbul usul va metodlarni kelishib olishlari zarur. Jumladan, ko‘pgina maqolalar va qo‘llanmalarda “kompetensiyaviy yondashuv” so‘zini “kompetensiyaviy yondoshuv” deb, noto‘g‘ri nomlab kelishmoqda. Bundan tashqari, “Fanga oid umumi kompetensiyalar”ni ayrimlar “xususiy kompetensiyalar” deb

nomlab, uning ma’nosini buzishmoqda. Bunday yanglishliklarga yaqin kelajakda chek qo‘yiladi degan umiddamiz.

Adabiyot faniga oid kompetentsiyalar ham belgilangan bo‘lib, ular o‘quvchilarning fanga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishga xizmat qiladi. Quyidagi adabiyot faniga oid kompetentsiyalar ishlab chiqilgan:

### **1. Adabiy-nutqiy kompetentsiyalar**

### **2. Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi**

Ma’lumki, Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” dramasi akademik litseyning 3-kurslari uchun adabiyot darsligida berilgan. O‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limida adabiy nutqiy va tahlil kompetentsiyalarining V1 va V1+ darajalari shakllantiriladi. Ya’ni, o‘quvchilar “Abulfayzxon” dramasini o‘rganish jarayonida adabiy nutqiy va badiiy asarni tahlil qilish kompetentsiyalarini rivojlantirish orqali o‘quvchi:

- drammnii ifodali o‘qiy oladi, ularning ijtimoiy hamda badiiy-estetik mazmun-mohiyatini tushunadi;
- anglaydi va idrok eta oladi;
- asar syujetida aks etgan nutq tiplarini, tasvir, mulohazalarni o‘zgalarga tushuntirib bera oladi;
- tasvirlangan voqeа-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildira oladi;
- shaxs sifatida adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda to‘g‘ri va tushunarli so‘zlay oladi;
- o‘z fikrini boshqalarga yetkaza oladi, asarda tasvirlangan voqeа-hodisalar, qahramonlarning fazilat va nuqsonlariga munosabat bildira oladi;
- dramadan parcha yod olib, uni rolli ijro eta oladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda nafaqat adabiyot, balki barcha fanlar uchun belgilangan tayanch va fanga oid kompetentsiyalarni rivojlantirish orqali ularning mavzuni yaxshiroq tushinishlari va chuqr bilim olishlariga erishiladi.

### **III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI**

#### **3.1. Ta’lim bosqichlarida Abdurauf Fitrat ijodini o‘rganishning ahamiyati**

Ta’lim bosqichlarida barcha fanlar, xususan, adabiyot fani uchun ham dastur ishlab chiqilgan. Har bir fan dasturiga fanga oid uqtirish xati ilova qilinadi. Umumiy o‘rta ta’lim mакtablarida adabiy ta’lim sof ilmiy maqsadlarni emas, balki ma’naviy-axloqiy yo‘nalishlar ustuvorligini ko‘zda tutadi. O‘quvchilar milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara na’munalarini o‘qish va tahlil qilish asosida

ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va xunuklik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi, ularga ongli va jonli munosabat bildirishadi, shular asosida o‘zlaridagi axloqiy-ma’naviy fazilatlar majmuining shakllanishi va rivojiga imkon topishadi. Ularga nisbatan ochiq hayotiy munosabatlarni aks ettirish zaruriyati esa, o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqlarining rivojidagi muhim omil vazifasini ado etadi.

O‘quvchilar turli davr va mamlakatlarda, turlicha dunyoqarash va e’tiqodlarni aks ettirgan badiiy asarlarning eng yuksak namunalari bilan oddiydan murakkabga tamoyiliga asosan tanishib boradilar. Shular asosida ularda olam va insonlar tabiatining rang-barangligi, ularning takrorlanmasligi, ayni paytda olamning, butun bashariyatning bir butunligi haqidagi tasavvur va qarashlar shakllanib, kengayib, mustahkamlanib boradi. Eng muhimi, u olam va odamga tegishli bo‘lgan barcha hodisalarga emotsiyal (hissiy) munosabat bildira oladigan darajaga ko‘tariladi, qarashlar, dunyoqarashlar, nuqtayi nazarlar xilma-xilligini kuzatish imkoniga ega bo‘ladi.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda adabiy ta’limni o‘qitish quyidagicha amalga oshiriladi:

Boshlang‘ich sinflarda adabiy ta’lim adabiy o‘qishlar tarzida o‘rgatiladi. Bola o‘qish texnikasini egallashi uchun, avvalo, uning savodxonlik darajasi shakllantiriladi, og‘zaki va yozma nutqi rivojlantiriladi, tovush va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etish o‘rgatiladi.

Dastlab tanish, keyin notanish matn ifodali o‘qilib, o‘quvchidagi ko‘nikma, malaka aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko‘rsatkich – o‘qish tezligi, ravon o‘qiy olish, bir daqiqada nechta so‘z o‘qiy olishi belgilanadi.

Bolaning matn mazmunini to‘liq uqib olishi qayta hikoya qilish, shuningdek, o‘zgalar nutqini eshitib, tushunib olishi maqsad qilinadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yozuvchi tarjimai holi va adabiy asarni sinfda o‘qish, o‘rganish bilan birga, asarlarni mustaqil o‘rganish va sinfdan tashqari o‘qishga ham alohida e’tibor qaratiladi. Bu yerda mavzuviylikka, syujetlilikka

nisbatan ko‘proq ahamiyat beriladi. O‘quvchilarning ijodiy o‘y-xayollarini, individual imkoniyatlarini badiiy asarlardagi yuksak badiiyat va takrorlanmas san’atkorona tasvirlar orqali kengaytirish asosiy o‘rin tutadi. O‘quvchilarda adabiy asarni tahlil qilish, adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganish malakasi shakllantiriladi. Garchi badiiy asarlarning har birini o‘rganishda tarixiy-estetik tamoyillarga to‘la tayanilsa-da, ularni izchil xronologik tartibda emas, balki muayyan mavzular (ruknlar) ko‘lamida o‘rganiladi.

Uzviylik va uzlucksizlik dastur tayangan asosiy tayanch nuqtalaridan biridir. Ayrim so‘z ustalari nomlarining takrorlanishi ularning e’tiroflari, shuningdek, asarlaridagi yuksak badiiy-estetik g‘oyalarning san’atkorona ifodalariga bog‘liqligini alohida ta’kidlash joiz. Albatta, buncha katta davrdagi adabiy jarayonning barcha mavzulari istisnosiz tarzda o‘rganilmaydi. Balki ular tegishli pedagogik-didaktik talablar doirasida saralanib o‘rganiladi. Bunda asosiy g‘oyalarni quyidagilardan iborat:

- asosiy urg‘u yuksak badiiylik talabalariga to‘la javob beradigan asarlarga qaratiladi;
- ushbu bosqichda mumkin bo‘lgan darajada adabiy-estetik xususiyatlariga ko‘ra oldingi bosqichlarda takrorlanmaydigan ijodkorlar va badiiy asarlar tanlab olinadi;
- ularni o‘rganishda ekstensiv emas, balki intensiv usulga ustuvorlik beriladi.

Bunda asarlarning miqdorini nisbatan kamroq qilib, har bir asarni o‘rganishga ajratilgan vaqt imkoniyatini ko‘paytirishga harakat qilingan. Bu har bir asarning o‘ziga xos badiiy olami bilan kengroq va chuqurroq tanishish imkonini tug‘diradi, undagi shakllarning mazmuniy jihatlari (tovush va so‘zlarning qo‘llanishi, badiiy asarning qurilishi, yozuvchi va asar uslubi, badiiy so‘z poetikasi va b.)ni teranroq ilg‘ash uchun sharoit yaratadi, asarda aks etgan ijodkor dunyoqarashining, nuqtayi nazarining o‘ziga xosliklari bilan yaqindan tanishishga imkon beradi.

Dasturda alohida olingan nisbatan “qiyinroq” va “murakkabroq” asarlarning bevosita tarixiy-adabiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-tarixiy hodisalar bilan

aloqadorlikdagi tahlilining ko‘zda tutilganligi o‘quvchilarning umumiyligi adabiy jarayon haqidagi yaxlit va nisbatan tizimli tasavvurlarining shakllanishiga imkon beradi.

Ta’limning turli bosqichlarida o‘rganish uchun saralab olingan asarlarga qo‘yiladigan asosiy mezonlar sifatida ularning yuksak badiiyati, insonparvarlik yo‘nalishi, o‘quvchi shaxsining yosh xususiyatlarini e’tiborga olgan holda uning kamoloti uchun ko‘rsata oladigan ijobiy ta’siri, milliy va umuminsoniy g‘oyalarga uyg‘unligi, milliy va jahon adabiyoti tarixida tutgan o‘rni singari belgilar asos qilib olinadi.

Chuqurlashtirilgan maktab (sinf)larda adabiyot fanini kengroq o‘rganish maqsadida o‘quv dasturida qo‘srimcha ikki soat vaqt ajratilgan. Bu ikki soatning bir soati (34 soat) oddiy sinflar (A2) uchun tuzilgan o‘quv dasturi mavzulari tarkibida berildi, ya’ni 5-sinfda A2: 102 soat; A2+: 136 soat davomida o‘rganiladi. Ajratilgan ikkinchi soatda esa, 5-6-sinflarda “Ifodali o‘qish”, 7-9-sinflarda esa, “Notiqlik san’ati” yondosh dasturlari o‘rganiladi.

Davlat ta’lim standartida Abdurauf Fitrat hayoti va ijodini o‘rganishga ajratilgan dars soatlari quyidagicha belgilangan:

5, 6, 7, 9-sinf adabiyot darsliklarida Abdurauf Fitrat hayoti va ijodini o‘rganishga doir dars soatlari ajratilmagan. 8-sinf adabiyot darsligida Fitrat hayoti va ijodini o‘rganishga 3 soat ajratilgan bo‘lib, u XX asr o‘zbek adabiyoti bo‘limiga kiritilgan. Ushbu mavzuni o‘rganish davomida o‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘ladilar: Fitrat hayoti va ijodi haqida ma’lumot. Fitratning iste’dodli olim, taniqli dramaturg bo‘lish bilan birgaxassos shoir ham ekanligi.

“Mirrix yulduziga” istiqlol orzusi bilan yaratilgan asar sifatida. She’rning Oktyabr to‘ntarishidan keyingi yangi hokimiyat, uning boshida turgan “bir o‘lkani yondirib, o‘z qozonin qaynatg‘uvchi hoqonlar”, “el-yurtini sotgan” xiyonatkorlar ustidan o‘qilgan badiiy hukm ekanligi. Asardagi shoir dardi va ijodiy jasorati. Mirrix yulduziga murojaat etish – o‘ziga xos poetik usul sifatida. “O‘gut” – bugungi kun yoshlari uchun ham ahamiyatini yo‘qotmagan she’r ekanligi. “Go‘zalim, bevafo

gulistonim” – shoir ishqiy lirikasining mumtoz namunasi sifatida. She’rda sevgida vafodorlik va fidoyilikning madh etilishi, rad etilgan muhabbat iztiroblarining obrazli tasviri.

Darslikda Fitratning “Mirrix yulduziga”, “Go‘zalim, bevafo gulistonim” she’rlari o‘quvchilarga mustaqil yod olish uchun vazifa sifatida berilgan.

10-11-sinf adabiyot darsliklarida va o‘rta maxsus kollejlarning ona tili va adabiyot darsligida ham Abdurauf Fitrat hayoti va ijodini o‘rganishga dars soatlari ajratilmagan. Akademik litseyning 3-kurs adabiyot darsligida<sup>7</sup> Fitrat hayoti va ijodini o‘rganishga 4 soat ajratilgan bo‘lib, unda Fitrat hayoti va “Abulfayzzon” dramasidan parcha o‘rin olgan. Bundan tashqari darslikka o‘quvchilarga mustaqil o‘qib o‘rganishlari, tahlil qilishlari va yod olishlari uchun Fitratning “Bir oz kul”, “Mirrix yulduziga”, “O‘qutg‘uvchilar yutriga” she’rlari ham kiritilgan.

Shunday qilib, maktab, kollej va litsey darsliklarida Abdurauf Fitrat hayoti va ijodini o‘rganish uchun ja’mi 6 soat ajratilgan.

### **3.3. Ochiq dars ishlanmasi**

#### **3-kurs akademik litsey o‘quvchilari uchun**

<b>Mavzu</b>	<b>Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi. “Abulfayzzon” dramasi tahlili</b>
--------------	---

#### **1.1. Ta’lim berish texnologiyasining modeli**

<b>Mashg‘ulot vaqt - 2soat</b>	<b>O‘quvchilar soni – 25 ta</b>
<b>Mashg‘ulot shakli</b>	Mavzu bo‘yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan amaliy mashg‘ulot.

<sup>7</sup> To‘xliyev B va boshqalar. Adabiyot (majmua): akademik litseylarning III kurs o‘quvchilari uchun. –T.: Bayoz, 2014. 64-bet.

<b>Maqsad, vazifalar</b>	<p><b>Ta’limiy:</b> o‘quvchining mavzuga oid ko‘nikmalarini hosil qilish, Abdurauf Fitrat hayoti va ijod namunalari orqali ma’naviy dunyoqarashni boyitish, komil insonni tarbiyalash, she’rlari orqali bilimlarini rivojlantirish, nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash.</p> <p><b>Tarbiyaviy:</b> insonning eng yaxshi fazilatlar sohibi bo‘lib etishishida, mustaqil, erkin shaxs sifatida shakllanishida, o‘z-o‘zini tarbiyalashida adabiyotning rolini anglash, adabiy merosni chuqur idrok etishga o‘rgatish.</p> <p><b>Rivojlantiruvchi:</b> she’rlarini va tahlil qilish orqali o‘quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish.</p>
<b>Mavzuni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. I.A.Karimov. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. –T.: “O‘zbekiston”, 2009.</li> <li>2. To‘xliyev B. va boshqalar. Adabiyot (majmua): akademik litseylarning III kurs o‘quvchilari uchun. –T.: “Bayoz”, 2014.</li> <li>3. Matchonov S., Sariyev Sh. Adabiyot. –T.: “Sharq”, 2012.</li> <li>4. Umarova S., Qudratova I. Adabiyot fanidan test savollari to‘plami. –T.: “Navro‘z”, 2015.</li> </ol>
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O‘quv faoliyati natijalari:</b>

<ul style="list-style-type: none"> <li>• Abdurauf Fitrat hayoti va uning asarlari haqida ma'lumot berish;</li> <li>• She'rlarini tarbiya obyekti sifatida tahlilga tortish;</li> <li>• Adabiy merosning inson hayoti va kasbi uchun muhim ekanligini izohlash.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Adabiy meros bilan tanishiladi va tushunchalar shakllanadi;</li> <li>• She'rlari orqali tarbiya omili rivojlantiriladi;</li> <li>• “Abulfayzxon”dramasi tahlil qilinadi</li> <li>• “Blist” so‘rov usuli orqali o‘quvchilar faollashtiriladi va bilimlari mustahkamlanadi.</li> </ul>
<b>Ta’lim berish usullari</b>	“Tafakkur cho‘qqisi”, “O‘yla! Izla! Top!” intellektual o‘yini, “Blits-so‘rov”, integratsiya, namoyish etish, “BBB” usuli, “G‘alvir”, daraxt konstruktori, rolli o‘yin.
<b>Ta’lim berish shakllari</b>	Kichik guruhlarda ishlash.
<b>Ta’lim berish vositalari</b>	8-sinf va III kurs adabiyot darsligi, Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” dramasining to‘liq variant, she’rlar to‘plami, kompyuter, proyektor, monitor, slayddlar, internet ma'lumotlari, ko‘rgazmalar, vatman, marker, tarqatma didaktik materiallar, skotch, rag‘bat kartochkalari.
<b>Ta’lim berish sharoiti</b>	Texnik ta’minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo‘ljallangan auditoriya.

**1.2. “Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi. “Abulfayzxon” dramasi tahlili”  
mavzusidagi amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi**

<b>Ish bosqichlari va vaqtি</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>Ta’lim beruvchi</b>	<b>Ta’lim oluvchilar</b>
<b>1.Tayyorgarlik bosqichi</b>	<p>1.1. Mavzu aniqlanadi, ta’limiy maqsad belgilanadi va kutilayotgan natijalar shakllantiriladi.</p> <p>1.2. Belgilangan ta’limiy maqsadlarga mos o‘quv-bilish topshiriqlari ishlab chiqiladi, taqdimot tayyorlanadi.</p>	
<b>2. O‘quv mashg‘ulotiga kirish bosqichi (20 daqiqa)</b>	<p>2.1. O‘tilgan mavzu savol-javob, “Blits so‘rov” usulidan foydalanib, mustahkamlanadi va yangi mavzuga ko‘prik yasaladi. Mavzu va adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiriladi, ularga qisqacha ta’rif beriladi.</p> <p>2.2. Mavzuning nomlanishi, maqsadi va kutilayotgan natijalar bayon etiladi.</p> <p>2.3. O‘quvchilarni kichik guruhlarda ishlash texnikasi qoidalari bilan tanishtiriladi.</p> <p>2.4. Mavzu bo‘yicha “Blits so‘rov” usulidan foydalanib, mavzu mustahkamlanadi.</p> <p>2.5. Ishchi guruhlarda o‘quv</p>	<p>Tinglaydilar, yozib oladilar</p> <p>O‘z tahlillarini beradilar.</p> <p>O‘quvchilar berilgan</p> <p>muammoli savol jadvalini to‘ldirishadi</p> <p>O‘quvchilar</p>

	<p>topshiriqlarini bajarish e'lon qilinadi.</p> <p>2.6. O'quvchilar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beriladi.</p>	<p>berilgan savollarga javob beradilar</p>
<b>3. Asosiy bosqich (40daqiqa)</b>	<p>3.1. Suhbat o'tkaziladi. Musobaqa tashkil etiladi.</p> <p>3.2. Mavzu bo'yicha mashg'ulot rejasи va asosiy tushunchalari bilan tanishishtiriladi.</p> <p>3.3. Slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy ma'lumotni tushuntirib beriladi.</p>	<p>Suhbatda faol ishtirok etadilar.</p> <p>Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>Tinglaydilar, muhim joylarini o'z daftarlariiga qayd etadilar.</p> <p>Javob beradilar.</p>
<b>4. Darsni mustahkamlov-chi bosqich (15daqiqa)</b>	<p>4.1. O'quvchilar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beriladi.</p> <p>4.2. O'quvchilar Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi bo'yicha savollarga javob beradilar. "O'yla! Izla! Top!" o'yinidan foydalaniadi.</p>	<p>Berilgan topshiriqlarni bajarishadi.</p>
<b>5. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</b>	<p>5.1. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiriladi.</p> <p>5.2. Mavzu bo'yicha yuzaga kelgan savollarga javob beriladi, yakunlovchi xulosa beriladi.</p> <p>5.3. Mustaqil o'rghanish uchun: Abdurauf Fitratning "Abulfayzxon"</p>	<p>Savollar beradilar</p> <p>Topshiriqni yozib oladilar.</p>

	dramasining to‘liq matni bilan tanishish. She’rlaridan yod olish. Ularni tahlil qilish. Izohli lug‘atlardan foydalaniib tushunish qiyin bo‘lgan so‘zlarning jadvalini tuzish.	
--	---	--

## Darsning rejasi

Darsning maqsadi:

- 1) ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga Abdurauf Fitratning hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish;
- 2) tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni tug‘ilib o‘sigan Vataniga muhabbat, yaqinlariga hurmat ruhida tarbiyalash;
- 3) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantirish, fikrlash doirasini kengaytirish.

Darsda foydalaniladigan usullar: “Tafakkur cho‘qqisi”, “O‘yla! Izla! Top!” intellektual o‘yini, “Blits-so‘rov”, integratsiya, namoyish etish, “BBB” usuli, “G‘alvir”, daraxt konstruktori, rolli o‘yin.

Dars shakli: savol-javob, guruhlar va jamoa bilan ishlash.

Darsda foydalaniladigan jihozlar: 8-sinf va III kurs adabiyot darsligi, Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” dramasining to‘liq varianti<sup>8</sup>, she’rlar to‘plami, kompyuter, proyektor, monitor, slaydlar, internet ma’lumotlari, ko‘rgazmalar, vatman, marker, tarqatma didaktik materiallar, skotch, rag‘bat kartochkalari.

Darsning borishi:

### I. Tashkiliy qism.

O‘quvchilar bilan salomlashilib, davomat aniqlangach, sinf xonasi va o‘quvchilarining darsga hozirligi ko‘zdan kechiriladi. Dars musobaqa usulida olib borilishi e’lon qilinib, o‘quvchilar “Yosh tilshunoslar”, “Adabiyotshunoslar”, “Zukkolar” guruhlariga bo‘linadilar va o‘z guruhlarining nomlarini izohlaydilar.

---

<sup>8</sup> Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar, IV jild. –T.: Ma’naviyat. 2006.

## II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

O‘quvchilarga o‘tilgan mavzu yuzasidan mustahkamlash va Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi yuzasidan mavjud bilimlarini sinash uchun mantiqiy fikrlashni talab etuvchi quyidagi savollar bilan murojaat etiladi:

I guruhga: Muhammad Sharif So‘fizoda qachon, qayerda tug‘ilgan? Uning “O‘qing, onalar” she’rini tahlil qiling.


II guruhga: Muhammad Sharif So‘fizoda qaysi tillarda ijod qilgan? Uning “Gazeta to‘g‘risida” she’rini tahlil qiling.

Ikkala guruh tayyorlangunga qadar III guruh bilan “Blits-so‘rov” o‘tkaziladi:

1. Muhammad Sharif So‘fizoda qaysi mamlakatlardagi oliygochlarda tahsil olgan?
2. Abdurauf Fitrat qachon va qayerda tug‘ilgan?
3. Abdurauf Fitratning qanday asarlarini bilasiz?

O‘quvchilarning javoblari tinglanadi. Guruhlarning javoblari o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi va faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. Shundan so‘ng “O‘yla! Izla! Top!” intellektual o‘yini o‘tkaziladi.

## O‘yla! Izla! Top!



Bunda guruh sardorlari kelishgan holda monitorda ko‘rsatilgan shartlardan

birini tanlaydi. Masalan, “Eng... Eng... Eng...” sharti tanlanadi. Bu shartda har bir guruhga Abdurauf Fitratning hayoti va ijodiga doir 3 tadan savol beriladi. Savollar monitor orqali berilishi yoki o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittirilishi ham mumkin.

I guruh uchun savollar:

1. Abdurauf Fitrat jadidlarning qaysi harakatida faol ishtirok etgan? (“Yosh buxoroliklar”)
2. Ijodkor qaysi madrasada tahsil olgan? (Mir Arab)
3. Adib Turkistonda til, adabiyot, san’at masalalari bilan ilk bor tashkiliy ravishda shug‘ullangan jamiyatga rahbarlik qiladi. Bu qaysi jamiyat? (“Chig‘atoy gurungi” jamiyat)

II guruh uchun savollar:


1. Abdurauf Fitratning dramatik asarlarini sanang? (“Chin sevish” (1920), “Hind ixtitolchilari” (1923), “Arslon” (1925), “Vose’ qo‘zg‘oloni” (1927), “Abulfayzzon” (1924), “Shaytonning tangriga isyoni” (1924))
2. “Munozara” nomli asarining to‘liq nomi nima? (“Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadid xususida qilg‘on munozarasi”)
3. Adib qachon nohaq qatl etiladi. (1938-yil 4-oktyabrdan)

III guruh uchun savollar:

1. Yuksak saviyadagi asarlari qachon Alisher Navoiy nomidagi Respublika davlat mukofotiga munosib deb topildi? (1991-yilda)
2. “Shaytonning tangriga isyoni” asari qaysi janrda yozilgan? (drama)
3. Mustaqillikdan keyin uning asarlari necha jidda bosib chiqildi? (3 jild)

O‘quvchilarning javoblari tinglanadi. Guruhlarning javoblari o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi va faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

**“Bilimlar bulog‘i”**



ko‘rsatilgan fanlardan birini tanlashadi. Masalan, matematika fani tanlansa, har bir guruhga bittadan matematik misol beriladi. O‘quvchilar misollarni bajarishlari asnosida kelib chiqqan sonning Abdurauf Fitrat hayoti va ijodiga tegishliligini topishlari kerak bo‘ladi. Misollar ham slayd orqali ko‘rsatiladi.

• $1087 + 874 =$ I guruh	• $982 * 2 =$ II guruh	• $3872 : 2 =$ III guruh
-----------------------------	---------------------------	-----------------------------

Bunda 1-matematik  
amal 1920, ya’ni 1920-

yilda “Chin sevish” dramasi chop etilgan. 2-matematik amalning javobi 1923, Ya’ni

1923-yilda “Hind ixtitolchilari” dramasi yaratilgan. 3-matematik amalning javobi 1925, Ya’ni 1925-yilda “Arslon” dramasi chop etilgan.

Tarix fanidan har bir guruhgaga monitor orqali bittadan savol beriladi:

— Qaysi asarida bir farangi va buxorolik mudarrisning bahsida o‘z ifodasini topgan muammolari bayon qilingan?

— Diniy xurofot tanqid qilinayotgan yo‘sinda yozilgan dramasi qaysi?

— Forsiy tildagi “Sayxa“ nomli to‘plami qachon nashr etilgan?

O‘quvchilar tomonidan ona tili fani tanlanganda, belgilangan vaqt oralig‘ida I guruh sifatlarni, II guruh otlarni, III guruh she’rtaldagi undalmalarni topishlari kerak bo‘ladi.

O‘quvchilar tomonidan berilgan javoblar umumlashtirilib, shartlarda faol ishtiroq etgan o‘quvchilarga “Ofarin” (5 ball), “Barakalla” (4 ball), “Harakat qil” (3 ball) rag‘bat kartochkalari beriladi.

### III. Yangi mavzu bayoni.

Fitrat dramalari orasida alohida o‘rinlardan birini “Abulfayzxon” egallaydi. “Abulfayzxon” janriga ko‘ra – tarixiy fofija. Mazmun-mundarijasiga ko‘ra ko‘hna Buxoro tarixidagi g‘oyat mas’uliyatli va murakkab davrlardan birini qalamga olgan. Bu ashtarxoniyalar sulolasining oradan ko‘tarilib o‘rniga mang‘itlar sultanatining kelishidir. Drama bir qadar o‘rganilgan, u haqida qator maqolalar yozilgan, dissertatsiya yoqlangan<sup>9</sup>. Asar o‘rta maktab darsligiga kiritilgan va h.k.

Ashtarxoniyalar sulolasining so‘ngi hukmdori bo‘lgan Abulfayzxon (1711-

<sup>9</sup> I.G‘aniyev. Masterstvo Abdurauf Fitrat tragediyasi “Abulfayzxon”, AKD.- T 1992.

1747) shaxsi boshqalaridan ko‘p-da farq qilgan emas. Lekin u yurt so‘ragan XVIII asarning birinchi yarmidagi tarixiy, siyosiy sharoit juda murakkab bo‘lganligi aniq. Gap shundaki, sultanatda Muhammadhakim (pyesada Hakimbiy) bosh mang‘itlar nufuzi benihoya ortib ketgan edi. Ikkinchisi tomondan esa, joriy an'anaga ko‘ra ashtarxoniylardan boshqani xon ko‘tarish mumkin bo‘lganligi tufayli mang‘itlar o‘z vakillarini taxtga o‘tqaza olmas edilar. Shu sababli, Abulfayzxon nomigagina xon bo‘lib, hamma ishlar mang‘it Muhammadhakim izmida edi. Muhammadhakim, so‘ngroq uning o‘rnini egallagan o‘g‘li Muhammadrahim (dramada Rahimbiy) barcha ishlarni Abulfayzxon orqali amalga oshirar, shu jumladan, sultanat yo‘lidagi dushmanlarini xon qo‘li bilan o‘rtadan ko‘tarar edilar. Bunday qo‘sh hokimiyatichilik birgina saroy darasida emas, sipohlar orasida ham ikkiyuzlamachilikka keng yo‘l ochgan edi.

Fitrat mana shu tarixiy voqyelikning mazmun-mohiyatini konkret obrazlar xatti-harakati va taqdirlar misolida qayta jonlantirishga va ulardan zamon uchun kerakli xulosalar chiqarishga muvaffoq bo‘ladi.

Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” dramasida o‘zbek adabiyotida mamlakatni idora qilishda faqat o‘z shaxsiy manfaati-yu maishatdan boshqani bilmagan hokim va beklarning tarixiy taqdiri inqirozdan iborat ekanligi yuksak g‘oyaviy va madaniy saviyada tasvirlab berilgan. “Abulfayzxon” dramasi tarixiy mavzuda bitilib, Fitrat xalq tarixini tomoshabin ko‘z oldida qayta gavdalantirishdan tashqari o‘z zamonasidagi nosozliklarga nisbatan ham munosabatini anglatib ulgurgan. 1924- yillarda yozilgan “Abulfayzxon” tragediyasining ahamiyati katta. Ushbu asar o‘zining mukammaligi bilan XX asr adabiyotida alohida o‘rin tutadi. Asarni o‘qish jarayonida biz butun boshli bir tarix va bir sulola tanazzuliga guvoh bo‘lishimiz mumkin. „Abulfayzxon“ o‘zining shekspirona epik ko‘لامи bilan ajralib turadi. Unda Fitrat Shekspir pyesalariga xos qabartma tip va xarakterlarni yaratdi. Zulmga asoslangan sultanat tojining otadan bolaga o‘tib kelishi natijasida paydo bo‘luvchi qonli oqibatlarni haqqoniy tasvirladi. Mazkur pyesa

asosida Ashtarxoniyalar sulolasining so‘nggi vakili bo‘lmish Abulfayzxon saltanatining tanazzuli (XVIII asr) natijasida Buxoroda Mang‘it amirlarining saltanat tepasiga kelishlari bilan bog‘liq tarixiy voqealar yotadi. Fitratning olis tarixiy voqeaga nazar solishdan maqsadi: „Podsholik qon bilan sug‘orilgan bir og‘ochdir, qon oqib turmagan yerda bu daraxtning qurib qolishi aniqdir“ degan falsafa bilan yashagan va o‘zi ham shu g‘ayriinsoniy falsafaning qurbanini bo‘lgan Abulfayzxon singari qonxo‘r podsholarni tarix qa’ridan olib chiqib, xalqqa ko‘rsatishdir. Fitrat bu asari bilan bolsheviklar tuzumi XX asrning Abulfayzxonini – Stalinni yaratishi va uning bepoyon mamlakatni qonga botirishini bashorat etdi. Shu ma’noda mazkur tragediya Fitrat zakosi bilan yaratigan xalqni ogohlantiruvchi asardir. Fitrat bu asari bilan o‘zbek adabiyotida tragediya janriga asos solib, mazkur janrning asosiy tamoyillarini belgilab berdi.

“Abulfayzxon”dagi voqealar besh parda ichida joylashtirilgan. Unda har bir pardada kechgan voqealar tarixan parchada kechgan voqealar tarixan necha yillik yoki oylik voqealarni qamrab olishdan qat’y nazar asosan syujet vaqtini bir kunni tashkil qiladi. Demak, muallif vaqt va harakat nisbatida oddiy yo‘l tutgan. Tarixan bir yil ichida (1739-1740) kechgan voqealar bir kunga joylashtiriladi, yana navbatdagi tasvirga olinishi kerak bo‘lgan davr voqealari bir kechayu kunduzga joylashtiriladi, shu kabi besh parda davomida besh kunlik hodisalarni ko‘rsatish orqali Fitrat 1739-yildan 1747-yilgacha bo‘lgan davirdagi Buxoro xonligidagi keskin mojarolarni berishga uringan. Tarixiy voqealarni tanlashda tam shekspirdan o‘zgacharoq yo‘l tutgan, ya’ni millat va mamlakat tarixi uchun muhim va tahlikali sanalgan 1739, 1740, 1747-yillardagi ayrim voqealargina tanlab olinib, uning asosida syujet yaratilgan va bundan kelib chiqib sujet vaqtin ham besh kun (ya’ni besh parda davomida) qilib belgilangan.

Fitratning “Abulfayzxon” fojiasidagi pardalar o‘rtasida ancha voqealar bo‘lib o‘tganini birinchi parda bilan ikkinchi, uchunchi va boshqa pardalar orasidagi voqealar orqali anglaymiz. Bunday voqealar girdobida “Abulfayzxon

soltanati qoyadan jarlikka qarab shiddat bilan qulayotgandek taassurot qoldiradi”<sup>10</sup>. Uning «Abulfayzxon» fojiasi o‘zbek adabiyoti tarixida katta voqea bo‘ldi. Muallif bu asarni «Buxoro o‘lkasining tarixidan olingan besh pardali fojia» deb ataladi<sup>11</sup>. Fojia, ya’ni tragediya Aristotelning fikricha, to‘rt xil bo‘ladi:

- 1) murakkab to‘qimali tragediya;
- 2) iztiroblar tragediyasi;
- 3) xarakterlar tragediyasi;
- 4) ajoyibotlar tragediyasi<sup>12</sup>.

“Abulfayzxon”ning mazmuni va mundarijasi bilan tanishgan kitobxon uning “murakkab to‘qimali tragediya” ekaniga ishonish hosil qilishi mumkin. Chunki bu asarda hamma narsa keskin o‘zgarish va yevrishlarga asoslanadi.

Asar Maskvada 1924-yil “Markaziy sharq” nashiriytida bosmadan chiqdi. Asarning qayta nashri bu asar yaratilgandan 65 yil keyin amalga oshirildi, shunga qaramay u o‘zbek fojianavisligining eng yuqori nuqtalaridan biri sifatida talqin yetilmoqda. “Abulfayzxon”ning Fitrat qalamiga mansub oldingi sahna asarlaridan farqi shundaki, unda ifodalangan voqealarda ma’lum umumlashma, realistik ruh, o‘tmish hayotiga, xonlik tartiblariga nisbatan tanqidiy qarashlar mavjudligidadir. Abulfayzxon 1711-1747-yillari Buxoro taxtining egasi bo‘lgan ashtarxoniyilar sulolasiga mansub hukmdorlardan. Uning uquvsizligi, maishatni mansabdorlik mas’uliyatidan yuqori bilishi va atrofidagi xoin amaldorlariga ishonishi natijasida mamlakat fojiaga yuz tutdi.

Hokimyatdagi boshboshdokliklardan foydalangan Eron hukmdori Nodirshoh Buxoro xonligini jangsiz qo‘lga kiritadi va bu ishda unga ko‘maklashgan Rahimboy otaliqni Abulfayzxon o‘rniga xon qilib ko‘taradi. Rahimboy otaliq vazifasida tursa ham xon avlodidan emas, shaxsiy qobiliyati bilan ham xonlikka nomunosib kishi edi. Shuning uchun ham buxoro xonligi Rahimboy idora qilgan davrdan boshlab amirlik deb yuritila boshlandi. Fitratning

<sup>10</sup> G‘aniyev I. Abdulfayzxon tarixiy dramasi poetikasi: Filol. fanlari nomz. diss. avtoref. –T. 1997. 11-bet.

<sup>11</sup> Fitrat Tanlargan asarlari. 1-jild. –T. Ma’naviyat, 2000. 45-bet.

<sup>12</sup> Arastu. Poetika. Axloq kabir. –T. Yangi asr avlodi, 2004. 45-46-bet.

“Abulfayzxon” asari boshqa dramatik asarlar kabi remarkadan boshlanadi: Kecha Buxoro arkinda Abulfayzxonning uy shohona to‘shalib bezangan. O‘rtada osilgan muhtasham “Chil chirog”ning butun shamlari yonib turadi. Uyning o‘rtasida kichkina kursichaning ustindagi shamdonchada yonib turgan shamning oydinligi ostida Ulfat xo‘jasaro, Mir Vafo ham Qozi Nizom taxta (shaxmat) o‘ynab turardilar. Tashqarida chalinib turgan cholg‘ular bir ozdan keyin sekinlashar so‘ngra bitar. Fitratning asaridan maqsad Buxoro xonligining fojiasini ko‘rsatishgina emas, balki davlat boshliqlarining ham uquvsizligiga e’tibor qaratish edi. Muallif remarka orqali “Davlat to‘qsoba chog‘ir bilan piyolalarni kirgizadi. Ketidan uch tanburchi, bir rubobchi, ikki naycha, bir dafchi, birda o‘yinchi qiz kirarlar. Hammalari o‘turgach, bazm boshlanardi. Davlat uch piyoladan chog‘ir tarqatardi, bazm tugagach, o‘yinchi, cholg‘uchilar qulluqlab chiqarlar. Ulfat piyolalarni chiqarar (185-bet) deb xabar beradi. Birinchi parda shuning bilan tugaydi, bu pardada biz asar bosh qahramoni Abulfayzxonni uch holatda ko‘ramiz.

1. Davlat ishida: bu paytda u o‘zi yoqtirmagan, mustaqil amaldorlarni o‘ldirtirib, o‘rniga sodiq qullarni amalga tayinlaydi.
2. Maishat holatida: bazmi jamshid qilib hordiq chiqaradi.
3. Uyquda, tushida nohaq qatl qildirilganlar xonga qarshi birlashayotganga o‘xshaydi.

Har uchala holat xonga xush kelmaydi. Buning sababi uning kayfiyati yoki xarakterida emas, balki behuda to‘kilgan qonlarning xunida. Davlat ishida ham hadik, imkon qadar o‘z jinoyatining ishtirokchilarini yo‘q qilish payida. Maishat paytida ham ko‘ngliga qil sig‘maydi. Hatto sozandalar unga orom berish uchun “Husayniy” kuyini chalganlarida ham bu musiqa unga orom bag‘ishlash o‘rniga uning bosinqirashiga sabab bo‘ladi. Natijada o‘ngida ham tushida ham tinchlik yo‘q.

O‘qituvchi mavzuni slayd orqali “Klaster” usulidan foydalanib tushuntirishda davom etadi:









#### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun o‘quvchilar o‘rtasida “G‘alvir”, “Kvadrat test”, “Daraxt konstruktori” didaktik o‘yinlari o‘tkaziladi. Birinchi guruh “G‘alvir”, ikkinchi guruh “Kvadrat test”, uchinchi guruh “Daraxt konstruktori” o‘yin shartlarini bajaradilar. Bunda har bir guruh uchtadan kichik guruhlarga ajratiladi. Masalan, I guruh a’zolari “G‘alvir” oyinida uchta kichik guruhga

ajratiladi. Bu kichik guruuhlar Abdurauf Fitratning asarlarini turlarga ajratadilar, ya’ni birinchi kichik guruh she’rlar, ikkinchi kichik guruh nasriy asarlari, uchinchi kichik guruh she’riy to‘plamlar, dramalarini ajratib, vatmanga yozadilar.

### ***“G‘alvir o‘yini”***



II guruhga “Mikrofon qo‘limda” o‘yini o‘tkaziladi. Bunda har bir guruhdan bittadan o‘quvchi chiqib, stol ustidagi konvertlardan birini tanlaydi. Konvertda berilgan she’r yoki badiiy asardan parchani ifodali o‘qiydi, qolgan o‘quvchilar baholaydilar.

1-konvert:

Muncha yomon sho‘rladi peshonalar,  
Qizlarimiz joriyai xonalar.  
Siz edingiz jonlara jononalar,  
Qadringizi bilmadi debonalar.  
Qumri bilan bulbul-u bedonalar,

Yaxshi o‘qur, siz ham o‘qing, onalar.  
Bir qarangiz, yerda ko‘kargan giyoh,  
Sizga qilur har biri etib nigoh.  
Lola kulib, tag‘in kular oymu moh,  
Umr aziz, joro turib etdi oh.  
Qumri bilan bulbul-u bedonalar,  
Yaxshi o‘qur, siz ham o‘qing, onalar.  
Millati islomianing bonusi,  
O‘zbek elining qorako‘z ohusi.  
Kar qilur bir kun jahl og‘usi,  
Ilm-u amal ushbu kasal dorusi.  
Qumri bilan bulbul-u bedonalar,  
Yaxshi o‘qur, siz ham o‘qing, onalar.  
Dod o‘shal olami ruhonidan,  
Qildi maishat fuqaro qonidan.  
Hurmi edi dini aziz jonidan,  
Millat uchun kechmadi o‘z qonidan.  
Qumri bilan bulbul-u bedonalar,  
Yaxshi o‘qur, siz ham o‘qing, onalar.

*Muhamad Sharif So‘fizoda “O‘qing, onalar”*

2-konvert:

Ko‘z yoshlarim bukun tag‘in oqarmi,  
Qizil gulim boshqalarga kular-da?

Qizil gulim, borlig‘imning sultoni,  
Jonim sening xayolingdan kuchaydi.  
Yuragimning eng qimmatli armoni,  
Nechun menga marhamating ozaydi?

Ikki ko‘zim, malak yuzim, sevdigim,  
Jonlar sening yuzginangdan aylansun.  
Qizil gulim, qora ko‘zim, tilagim,  
Dunyo sening boqishingdan o‘rgulsin.

Yovuz yorim, yuzingga hech boqolmam,  
Ko‘ngil dardin oyog‘ingga to‘kolmam,  
Tuproq kabi yiqilmisham yo‘lingda, deya olmam;  
Istar esang menga kelib gapirma, yonimda hech o‘tirma:

Yolg‘uz yig‘lab turganimni uzoqdan  
Ko‘rganingda marhamat et, bir oz kul!

*Abdurauf Fitrat “Biroz kul”*

### 3-konvert

Rahimbiy. Yo‘limizning ozi qoldi. Manzilga erisha yozdik. Abulfayzon ketdi. Uni yo‘qlag‘onlaringda ruhlariga fotiha o‘qub keldim. Emdi kim qoldi? Chumchuq kabi kichkina bir xon! Shunday (qo‘li bilan ko‘rsatib) olasan, kallasini uzib tashlaysan!.. Ruhing shod bo‘lg‘oy, otam, sen bitirmagan ishni men bitirdim. Yo‘q, bunlarning hammasi sen ekkan urug‘larning mevasidir. Sen menga yo‘l ko‘rsatmasa eding, sen Nodirshoh bilan do‘splashib, meni unga yubormasa eding, bu ishlar bo‘lmas edi. Bo‘lg‘onda ham, juda qiyinliq bilan bo‘lar edi.

Mir Vafo kelar.

Mir Vafo. Yo‘ldosh qalandar kelibdir. So‘zi bor ekan. Boshqa bir yo‘l bilan olib keldim.

Rahimbiy. Kelturingiz.

Mir Vafo panada turg‘on Yo‘ldoshni chaqirar. Yo‘ldosh ul burung‘i qalandar afti bilan kelib, duo qilar.

Yo‘ldosh. Omin, tezrak bu oyog‘ingizni ikkinchi bosqichg‘a qo‘yub taxtg‘a chiqqaysiz. Ollohu akbar.

Rahim biy (kulub). Ha, tentak, nima gap?

Yo‘ldosh. Yaxshilik, bek! Sizning xon bo‘lishingiz to‘g‘risinda odamlar bir-birlarig‘a so‘yashib turalar.

Rahimbiy . Nima deylar?

Yo‘ldosh. Odamlar rozi, xonliq-otaliq bekning haqqi, deylar. Biroq beklar, el boshliqlari bu ishga ko‘nmaylar. Chingiz avlodi bo‘limg‘on kishi xon bo‘la olmas, deylar. Mana shu so‘zlar, boshqa odamlarni bir oz tushundiradir. Shunga bir chora qilishingiz kerak.

Rahimbiy . Qanday chora?

Mir Vafo. Buning chorasi qulay, mullolardan bir fatvo olasiz. Shuning bilan bitadir.

Rahimbiy . Uni qilamiz.

Yo‘ldosh. Yana bir qiziq gap bor. Erondan kelturgan qo‘noqlaringiz boshimizg‘a bir balo chiqarmasalar yaxshi edi.

Rahimbiy . Nima qildilar? (Yurar).

Yo‘ldosh. Buxoroni mang‘itlardan tozalash kerak, deb so‘z torqatar ekanlar. Bir necha beklarimizga kishilar yuborib, “Siz ishga kirishingiz, biz yordam qilamiz”, deganlar, Abdumo‘minxonni arkdan qochirib, so‘ngra siz bilan urushmoqchi ekanlar, degan xabarlar bor.

Rahimbiy. Ahmoqlar, Buxoroda nima ishlari bor ekan?! Nodirshoh o‘ldirilgan, yurtlari buzulib turadir. Borib, o‘z ishlarini tuzatsunlar.

Mir Vafo. Bek, Abdumo‘minxonning ishini bir yoqlik qilmasangiz, yana bir janjal chiqar.

Rahimbiy (Mir Vafoga). Siz buni chiqarib yuboring, Oxun bilan Qozi Nizomni menim yonimg‘a chaqiring. O‘zingiz Eron qo‘shunig‘a borib, sardorlarg‘a ayting, o‘zlarini ko‘rmak istayman, kelsunlar.

Abdurauf Fitrat “Abulfayzxon”

III guruh daraxt ko‘rgazmasining pastki shoxlariga Fitratning she’rlarini, o‘rta qatoriga she’riy to‘plamlarini, tepa qatoriga dramalarini joylashtiradilar.

O‘quvchilarning bergan javoblari mustahkamlanadi va o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Darsni yakunlashdan oldin guruhlardagi har bir o‘quvchini yakka holda bilimlarini yana bir bor tekshirish uchun o‘quvchilarga yana bir jadval taqdim qilinadi. Ular asardagi tarixiy shaxslar obrazlarni ko‘rsatishlari kerak bo‘ladi.

T/r	Tarixiy shaxslar
1	Ubaydullaxon
2	Abdullahxon
3	Muhammad Hakimbiy
4	Ibrohimbiy
5	Abulfayzxon
6	Doniyorbiy
7	Nodirshoh

#### V. Baholash va rag‘batlantirish.

Dars so‘ngida baholar e’lon qilinib, faol o‘quvchilarga “Eng faol o‘quvchi”, “Eng bilimdon o‘quvchi”, “Eng zukko o‘quvchi”, “Eng topqir o‘quvchi” hamda “Eng faol guruh” nominatsiyalari beriladi.

#### VI. Uyga vazifa:

1. “Abulfayzxon” dramasini o‘qish.
2. She’r, doston, dramalaridan parcha yod olish.

Biz Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga qarashli akademik litseyning 3-bosqichida tadqiqot ishlarini olib bordik. Tadqiqot ishimizga 81 nafar o‘quvchilar va 7 nafar ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarini jalb qildik. Tadqiqotimizda quyidagi vazifalarni amalga oshirdik:

1. “Abulfayzxon” dramasida muallif uchinchi pardalar bilan to‘rtinchi,beshinchi pardalar orasida necha yil o‘tgan deb izohlaydi?  
A. 5 \*   B. 1   C.7   D. 2

2. „Abulfayzxon” dramasida kim: „...podshohliq qon bilan sug‘oriladigan bir og‘ochdir” deydi?
  - A. Davlat
  - B. Abulfayzxon
  - C. Ulfat\*
  - D. Hakimbiy
3. “Abulfayzxon” dramasida Farhod otaliq nima uchun qatl etiladi?
  - A. Shariatga teskari ish tutgani uchun
  - B. Jangda lashkarni yaxshi boshqarmagani uchun
  - C. Xonga qizini bermagani uchun
  - D. Eron shohiga yashirin xabar bergani uchun\*
4. „Abulfayzxon” dramasida kim Abulfayzxonga „Bu kecha tushimda payg‘ambarni ko‘rdim, sizni so‘rab yubordilar” deb chopon kiyishga erishadi?
  - A. Ulfat
  - B. Qozi Nizom
  - C. Mir Vafo \*
  - D. Davlat
5. „Abulfayzxon” dramasida Xayol obrazi vositasida kimning ruhi gavdalanadi?
  - A. Abulfayzxon
  - B. Siyovush\*
  - C. Afrosiyob
  - D. Rustam
6. „Abulfayzxon” dramasida „Xoqonimizni rozi qilmoq juda qiyin ish bo‘lib qolq‘on” deb kim xonning shaxsan yuziga aytadi?
  - A. Ulfat\*
  - B. Ibrohimbiy
  - C. Farhod otaliq
  - D. Mir Vafo
7. “Abulfayzxon” dramasida Ibrohimbiy qaysi urug‘dan?
  - A. Qalmoq
  - B. Qipchoq
  - C. Mang‘it
  - D. Kenagas\*
8. Abulfayzxon Farhod otaliqning kesilgan boshini nima qilishni buyurdi?
  - A. Darvoza tepasiga ilib qo‘y.
  - B. Qiziga sovg‘a qil.
  - C. Childuxtaron qudug‘iga tashla.\*
  - D. Eron shohiga yubor.
9. „Abulfayzxon” dramasida xayol tilidan qaysi shoirning misralari aytiladi?
  - A. Navoiy

- B. Bedil\*
- C. Ganjaviy
- D. Dehlaviy
10. Drammada to‘qsabo lavozimida ishlovchi qahramonlarni aniqlang.
- A. Davlat, Ulfat
- B. Rahim qurchi, Oxun
- C. Rahim qurchi, Davlat\*
- D. Ulfat, Mirvafo
11. Qaysi qahramon tushimda xoqonimizni ko‘rdim deb maqtanadi?
- A. Mir Vafo\*
- B. Qozi Nizom
- C. Ulfat
- D. Rahim qurchi
12. Abulfayzxonni otasi sotib olgan qullar kimlar edi?
- A. Mir Vafo, Ulfat
- B. Ulfat, Qozi Nizom
- C. Davlat, Ulfat\*
- D. Mir Vafo, Farhod
13. Qaysi qahramon otaliq lavozimini qabul qilmasligini aytadi?
- A. Ibrohimbiy\*
- B. Farhod
- C. Hakimbiy
- D. Ulfat
14. Xon qaysi qahramonga nisbatan “buni odam deb o‘ylasam, bu ham buzuqqa o‘xshaydir”, deb aytadi?
- A. Ibrohimbiy\*
- B. Farhod
- C. Hakimbiy
- D. Ulfat
15. Asarda tanbur yordamida qaysi kuy chalinadi?
- A. Munojot
- B. Dugoh
- C. Husayniy\*
- D. Segoh
1. Nazorat guruhlariga 62 nafar o‘quvchini jalb qildik.
2. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, Fitratning ”Abulfayizzon” dramasi bo‘yicha topshiriqlar test asosida o‘tkazildi.
3. Nazorat sinfi esa 64,2 foiz o‘zlashtirishga erishdilar.
1. “Chingiz avlodи bo‘lmagan kishi xon bo‘la olmaydi”, degan so‘zlar Rahimbiyga kim tomonidan aytilgan?

- A. Ibrohimbiy  
B. Farhod  
C. Ulfat  
D. Yo'ldosh\*
2. Asarda ko'zi ojiz inson sifatida tasvirlangan qahramon kim?  
A. Ibrohimbiy\*  
B. Ulfat  
C. Yo'ldosh  
D. Mir Vafo
3. Asarda otasining orqasidan olimga yuz tutgan qahramon kim?  
A. Abdulmo'min\*  
B. Ibodulla  
C. Abdullaxon  
D. Ubaydullaxon
4. "Kimning qo'lidan ish kelsa shu xon bo'laberadir" jumlesi kimga tegishli?  
A. Ibrohimbiy  
B. Yo'ldosh  
C. Farhod  
D. Oxun\*
5. Qaysi qahramon Abulfayzxonni "Soyai xudo" degan edi?  
A. Qozi Nizom\*  
B. Mir Vafo  
C. Farhod  
D. Doniyolbiy
6. Abdulmo'min kimni "bek bobo" deb chaqirar edi?  
A. Doniyolbiy  
B. Ibrohimbiy  
C. Farhod  
D. Rahimbiy\*
7. Rahimbiyga bo'ysunishni istamagan Eron sarkardasi kim edi?  
A. Husaynxon\*  
B. Abdullaxon  
C. Nodirshoh  
D. Mirsayid
8. "Nodirshoh o'lgan bo'lsa Eron tirikdir" jumlesi kimga tegishli?  
A. Rahimbiy  
B. Husaynxon\*  
C. Abdullaxon  
D. Mirsayid
9. "Jaldu" so'zining ma'nosi nima?  
A. O'lja\*  
B. Nafaqa  
C. Mukofot

D. Boylik

10. Abdulmo'minxon Qozi Nizomga qaysi lavozimni bermoqchi edi?

- A. Otaliq
- B. To'qsabo
- C. Mirsaidlik\*
- D. Mirshab

11. Asarda keltirilgan forscha nazm qaysi ijodkorga tegishli?

- A. Bedil\*
- B. Navoiy
- C. Muqumiy
- D. Ogohiy

12. Asarda "Ey qop qora saodat" deya nima tasvirlangan?

- A. Xayol
- B. O'lim\*
- C. Taxt
- D. Podshohlik libosi

13. Rahimbiyni qo'rquv iskanjasiga solib qo'ygan narsa nima edi?

- A. Din
- B. Xayol\*
- C. O'lim
- D. Taxt

14. Asarda qo'g'irchoq xon deya kim ta'riflangan?

- A. Abdulmo'min\*
- B. Abulfayzxon
- C. Ibrohimbiy
- D. Doniyolbiy

15. Rahimbiy Eron sarkardalariga qanchadan pul taklif qiladi?

- A. 11 ming tanga
- B. 20 ming tanga\*
- C. 25 ming tanga
- D. 15 ming tanga

Yuqoridagilardan xulosa chiqargan holda tajriba ishlarimizni quyidagilarga qaratdik.

1. Nazorat guruqlariga 62 nafar o'quvchini jalb qildik.
2. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, Fitratning "Abulfayizzon" dramasi bo'yicha topshiriqlar test asosida o'tkazildi.
3. Nazorat sinfi esa 64,2 % o'zlashtirishga erishdilar
4. Tajriba guruqlarida esa 80 % o'zlashtirishga erishdilar

# LUG'AT

**Taxta-shaxmat** nazarda tutiladi

**Kat-so'ri**, karavat

**Qo'rchi-qo'rxona** (quroq, aslaha yoki qimmatbaho nasalar saqlanadigan ombor)

**Urtuk-parda**

**Murood-hurmat-ehtirom**

**Daf**-chertib chalinadigan musiqa asbobi

**Qalin-polos**

**Tashnov**-uyning bir burchagi suv ketadigan joy

**Maqhur-qahru** g'azabga duchor bo'lish

**Bolvoi om**-balo qazolarni birdan yopirilib kelish ma'nosini bildiradi

**Jaldu**-sovg'a, in'om

**Ko'ma**- to'plam uyum

**Ishtiholiq xayvonlar**-yirtqich xayvonlar

**Bebokcha**-shaddod sho'x

**Beklik usuli**- bek (ayrim o'rinnarda "bey" yoki "biy") Buxoro xonligi tasarrufidagi viloyatlarning boshqaruvchisi bo'lib, u chksiz imkoniyatlarga ega bo'lgan. Ko'pincha ular yolg'iz xonlarga bo'yshingan

## XULOSA

Kelajak avlod tarbiyasida badiiy adabiyotni teran anglash, mustaqillik qobiliyatlarini shakllantirish va mustaqil ishlash, izlanishlarini odat tusiga kiritish, hayotda uchraydigan voqea-hodisalarning mohiyatini tez anglaydigan zukko va bilimdon qilib tarbiyalash aynan boshlang‘ich ta’limdan boshlanishi kerak.

Ma’lumki, badiiy adabiyotning eng ezgu, jahonshumul vazifalaridan biri insonni o‘zini-o‘ziga anglatishdir, chunki insonning nimalarga qodir ekanligi, qolaversa, nimalardan mahrum etilib kelinganligini biz ko‘pincha yuksak badiiy asarlarni mutoala qilish va ularni badiiy tahlili orqali anglab kelganmiz. O‘zbek xalqi A.Navoiy, A.Qodiri, Cho‘lpon, Oybek, Fitrat kabi ustoz san’atkorlar asarları orqali o‘zligini angladi. Ayniqsa, mustaqillik sharofati bilan ma’naviy qadriyatlarimizni tiklab borib, eskicha yashash mumkin emasligini chuqur anglab yashamoqdamiz.

Ana shu nuqtayi nazaridan qaraganda maktablarda adabiyot o‘qitishdagi eng ustuvor masala o‘quvchilarni go‘zallik olami, nafislik bilan oshno qilish, ya’ni ularning ma’naviy dunyosiga badiiy tahlil orqali ta’sir o‘tkazish adabiyot o‘qitishdagi eng ustuvor masala bo‘lmog‘i lozim. Maktab o‘quvchisi tomonidan to‘liq anglanmagan go‘zallik, qalbga ta’sir eta olmaydigan quruq voqealar bayoni didsizlikka olib keladi. Shuning uchun ham mакtabning ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi dars o‘tish metodikasining sir-asrorlarini chuqur o‘rgangan bo‘lishi lozim.

Ishimizni yoritish davmida malakali o‘qituvchi bo‘lish uchun aynan bugungi kun yangiliklarida, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan doimiy xabardor bo‘lish, o‘rganish va amalda foydalanish dars samarasiga qay darajada ta’sir qilishini ko‘rdik.

XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlarida Turkistonda mustamlakachilik siyosati va xurofotning qora kuchlari jamiyatning intilishlariga qarshi chiqishlariga qaramasdan yangicha ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarning

qaror topa boshlagani jamiyat hayotini tubdan isloh etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Tarixdan Abulfayzxon qismati birgina ashtarxoniyalar sulolasining fojiasi emas, balki Fitratning nazarida millat fojiasi darajasiga ko‘tarilgan.

Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” dramasini noan’anaviy metodlar orqali o‘rganish orqali o‘quvchilarda:

- 1) badiiy asar o‘qishga qiziqish uyg‘otish;
- 2) asar mazmun-mohiyatini chuqurroq anglab yetish;
- 3) asar haqida qo‘srimcha ma’lumotlar qidirishga undash;
- 4) umumiy holada, jamoa bo‘lib ishlashga o‘rganish va o‘zaro hurmat hissini shakllantirishga erishish mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **Siyosiy va rahbariy adabiyotlar:**

1. Karimov I.A Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – Eng oliv saodatdir. – T.: O'zbekiston, 2015. 235-b.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga e'tibor. Toshkent: O'zbekiston, 2009.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T. Sharq, 1998.
4. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 1999.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. Ma'naviyat, 2008. 34-b
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017.

### **Ilmiy nashrlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun//Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T. Sharq, 1997.
2. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarinitasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-yil 14(774)-son, 230-modda.

### **Darslik va o'quv qo'llanmalari:**

1. Arastu. Poetika. Axloq kabir. –T. Yangi asr avlodi, 2004. 45-46-b.
2. Boltaboev H. Fitrat - adabiyotshunos. -T. Yozuvchi, 1996.
3. Boltaboev H. Fitratning ilmiy merosi. -T. Fan, 1996.
4. Erkinov S. Fitrat – navoiyshunos. O'zbek tili va adabiyoti, 1990, 3-son, 3-b.
5. Fitrat. Najot yo'li. T. Sharq, 2002.
6. Fitrat. Tanlangan asarlar, Ikki jildlik. - T. Ma'naviyat, 2001.
7. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. - Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013.

8. J.G'. Yo'ldoshev, S.A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.O'qituvchi, 2004.
9. Qosimov B. Fitrat. O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1991, 10-son.
10. Qozoqboy Yo'ldoshev, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari.-T. Kamalak, 2010.
11. Til va adabiyot ta'liming zamonaviy texnologiyalari. Toshkent: Bayoz, 2011.
12. To'xliyev B, Inog'omova R., Abdulahatova R. Darsliklar bilan ishlash metodikasi. Toshkent, O'qituvchi, 2008.
13. To'xliyev B, Niyozmetova R., Boltayeva I. Darsliklar ustida ishlash. – Toshkent Fan nashriyoti, 2007.
14. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
15. To'xliyev B., Yusupova Sh, Haqberdiyeva Z. Yuksak ma'naviyatli shaxs tarbiyasi.- T. O'qituvchi, 2010.
16. Umarova M. Fitrat dramalarida tarix va zamon talqini "Yosh olim 2009". Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T. 2009. 117-119-b.
17. Umarova M. Uyg'onish davrining ikki tarixiy dramasi Til va adabiyot ta'limi. – T. 2003. – 4-son. 62-65-b.
18. Zunnunov A va boshqalar. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T. O'qituvchi, 1992.
19. Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1992.
20. Фаниев И. "Абулфайзхон" тарихий драмаси поэтикаси. – Т.: НДА, 1998.
21. Фитрат. Абулфайзхон. Танланган асарлар. 1-жилд. – Т.: Маънавият, 2000.

#### **Internet materiallari:**

- 1.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- 2.[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
- 3.[www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

4.<http://www.edu.uz/>